

O'ZBEKISTON RESPULIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIY- IQTISODIY FAKULTETI

“ TARIX” KAFEDRASI

V-5220200- Tarix ta'lism yo'naliishi bitiruvchisi
Meliqulova Aziza Amriddin qizining

«O'zbekiston tarixini o'qitishning nazariy metodik asoslari»
MAVZUSIDAGI

B I T I R U V – M A L A K A V I Y I Sh I

Ilmiy rahbar:

“Tarix” kafedrasi
o'qituvchisi Isroilov M.

Guliston-2017

MUNDARIJASI

KIRISH.....	3
I BOB. O'ZBEKISTON TARIXI FANINI O'QITISHNING NAZARIY MASALALARI.....	5
1.1. O'zbekiston tarixi fani taraqqiyotining ustuvor o'nalishlari.....	5
1.2. O'zbekiston tarixi fanini o'qitishdagi innovatsiyalar va ilg'or xorijiy tajribalar.....	10
II BOB. O'ZBEKISTON TARIXI FANIDAN ELEKTRON O'QUV MODULI IShLANMASI.....	27
2.1. O'zbekiston tarixi fani dasturining tavsifi.....	27
2.2. Ma'ruza matni. Sovet davlatida ma'muriy buyruqbozlik tuzumining kuchayishi va inqirozi davrida O'zbekiston (1946-1991) mavzusi misolida.....	31
2.3. Mavzu yuzasidan keyslar innovatsion texnologiyalar, amaliy topshiriqlar va ishlanmalar.....	59
2.4. Nazorat topshiriqlari va mustaqil ta'lim yuzasidan ko'rsatmalar.....	65
2.5. Fan mavzulari yuzasidan taqdimotlar.....	74
XULOSA VA TAVSIYaLAR.....	80
FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR RO'YXATI.....	84

KIRISH.

O'zbekistonning davlat mustaqilligini ko'lga kiritishi tufayli xalqimizning asriy orzusi ushaldi, o'z takdiri va kelajagini o'zi yaratadigan bo'ldi. Tarixan qisqa davrda jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy xayotining barcha sohalarida keskin burilish yasaldi. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish, faol demokratik yangilanishlarni amalga oshirish bilan bog'liq qator islohotlar o'tkazildi. Jumladan, ana shu buyuk o'zgarishlarni asrlar davomida orzu qilgan xalqimizning ko'xna tarixiga bo'lgan munosabati tubdan o'zgardi. Zero, Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek: "O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yuk"¹ Ayniqsa, bugungi murakkab globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yanada yuksaltirish, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya kilishda Vatan tarixini har tomonlama va chukur tadqiq etish, birlamchi manbalarga tayanib talqin etish, kelajak avlodga xaqiqiy tariximizni o'qitish orkali ularni yuksak ma'naviyatli shaxslar etib tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz tarixida yangi davr - mustaqil taraqqiyot davri boshlandi. Xalqimiz demokratik xuquqiy davlat va ochik fuqarolik jamiyatি qurish yo'lida dastlabki sinovlardan utdi. Istiqlol yillarda yurtimizda milliy ma'naviyatimizni tiklash, uni zamon talablari asosida rivojlantirish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Demokratik islohotlar tobora chuqurlashib bormoqda.

Yangi jamiyat qurish, avvalo, yoshlarga, ularning ma'naviy dunyosi, kasb-mahoratiga bog'liq. Binobarin, yosh avlodda milliy g'oyani, yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirishda, milliy ong va sog'lom fikrni uyg'otish, ularni Vatan, xalq va istiqlol takdiri uchun g'oyaviy kurashchanlik ruhida tarbiyalashda, yuksak ma'naviyatli komil inson bulib shakllanishida, shuningdek, xalqimizning ma'naviy yuksalishi yo'lida "O'zbekiston tarixi" fanining ahamiyati katta. Ushbu fanning barcha oliy va urta maxsus o'kuv yurtlari hamda maktablarda o'qitilishi ham ana shu yuksak ahamiyat bilan belgilanadi.

¹ Ислом Каримов Юксак маънавият - енгилмас куч. Тошкент, Маънавият, 2008. - Б.4.

O’zbekiston tarixi fanining mazkur dasturi O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni asosida va kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida kelib chiqib, davlat standartlari bo’yicha bakalavriat darajasidagi malakali mutaxassislar tayyorlashni, ularga O’zbekiston o’tmishidagi va hozirgi hududida eng qadimgi davrlardan hozirgacha kechgan voqeliklar insonlar hayoti, jamiyat taraqqiyoti to’g’rissida bilimlar berishni maqsad qilib qo’yadi. O’zbekiston tarixini o’rganish shuning uchun kerakki, u soxta tarixiy tushuncha va tarixiy xotirasizlikka barham beradi. Milliy g’oya va mafkura takomillashvini tezlashtiradi. Yurtboshimiz aytganlaridek : “o’z tarixini bilgan undan ruxiy quvvat oladigan xalqni engib bo’lmaydi”.

O’zbekiston tarixi fani 1-ijtimoiy gumanitar fanlar blokiga kirib, barcha bakalavriat ta’lim yo’nalishlari talabalariga vatanimiz tarixini chuqurroq ilmiy jihatdan asoslangan holda manba’larga tayanib o’rganadi.

Bugungi kunda Oliy ta’lim muassasalarida O’zbekiston tarixi fani o’qituvchisining zamonaviy dars mazmunini uning shakl va metodlarini to’g’ri tanlay olishi va ularni amalga oshira olishi talabalarning davlat ta’lim standartlari talablarini bajarishining muhim omillaridan biridir.

“O’zbekiston tarixi fanini o’qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” moduli mashg’ulotlari davomida innovatsion texnologiya ta’rifi, tasnifi, metodik asoslari ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo’llari shu orqali, talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish masalalari yoritiladi.

I BOB. O'ZBEKISTON TARIXI FANINI O'QITISHNING NAZARIY MASALALARI.

1.1. O'zbekiston tarixi fani taraqqiyotining ustuvor yo'naliishlari.

Mustaqillik yillarda O'zbekiston tarixi fani Oliy o'quv yurtlarida o'qitilishiga alohida e'tibor berildi.

Prezidentimiz imzosi bilan faqat 1996-1998 yillarda uchta farmon va qarorlar (1996 yil 18-sentyabrdagi “O'zbekistonning yangi tarixi markazini tashkil etish to'g'risida”, 1996 yil 16 dekabrdagi “O'zbekistonning yangi tarixini tayyorlash va nashr qilish to'g'risida” va 1998 yil 27-iyuldagagi “O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida”) qabul qilindi. Tarix institutiga yangi maqom berilib, u yangidan tashkil etildi. Natijada tarix fani o'qituvchilari oldiga katta vazifalar qo'yildi. Tarix fanini o'qitishga yangicha yondashildi.

Ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiyalashtirish masalalariga yangicha yondashuvlar boshlandi. Xuddi shuningdek oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan barcha fanlar moduli yaratilmoqda. Tarix fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga ham yangicha yondashilmoqda.

Modulning dolzarbligi, shundaki, tinglovchilarining zamonaviy innovatsion texnologiyalar, ularning turlari hamda ulardan o'quv jarayonida foydalanish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga e'tibor beriladi.

Mustaqillik sharofati bilan Vatanimiz tarixini o'rganish, uni o'qitishga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Oliy ta'limning birinchi bosqichi bo'lgan bakalavriataturada O'zbekiston tarixining umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasbhunar ta'limi dasturiga nisbatan chuqurlashtirilgan, asosiy muammolar atrofida nazariyfikr yuritiladigan yangi dasturini ishlab chiqish zaruriyati vujudga keldi. Bu dastur mazmunan, Prezident Islom karimovning 1998 yil 26 iyun kuni bir guruh tarixchilar bilan bo'lgan suhbatida ilgari surgan nazariy. Metodologik ko'rsatmalari ruhi bilan sug'orilgan. Mazkur o'quv dasturi ajdodlarimiz hayotida sodir bo'lgan tarixiy voqealarni tahlil kilishga, ularning sabablari va mohiyatini,

ichki va tashki omillarini, umumiy va xos qonuniyatlarini ochib berishni ko'zda tutadi

Fanni o'qitishdan maqsad:

-yosh avlod ongida insoniyat uchun eng muhim bo'lgan ma'naviyatni shakllantirish hamda yanada yuksaltirish, ular ongida yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirish jarayonida milliy ong va sog'lom fikrni uyg'otish, tarixiy xotiraning yoshlarimizni Vatanga sadokat hamda millatparvarlik ruxida tarbiyalashdagi mislsiz ahamiyatini ifoda etish, o'z takdiri va kelajagini barpo etadigan yosh avlodni yangi jamiyatni yanada rivojlantirishga yunaltirilgan g'oyalar asosida tarbiyalashga qaratilgan.

Fanning vazifasi:

- Vatanimiz xududlarida eng qadimgi davrlardan boshlab bo'lib o'tgan tarixiy madaniy jarayonlarni xolisona hamda manbalarga tayangan holda tahlil qilish, o'rghanish ularning sabablari va mohiyatini ochib berish;

- tarixning turli davrlarida mamlakat iqtisodiy va madaniy ravnaqi uchum fidoyilik qilgan davlat arboblari, ulug' sarkardalar, ilm-fan hamda madaniyati namoyandalari, milliy kahramonlar faoliyatini xolisona baxolash asosida yoshlarimizni millatparvarlik ruhida tarbiyalash;

- tarixiy xotira asosida yoshlarimizni "Biz xech kimdan kam emasmiz va kam bulmaymiz" g'oyasi ruhida tarbiyalash;

- hozirgi kunda mamlakatimizda o'tkazilayotgan islohotlar va juda ko'plab bo'layotgan zamonaviy o'zgarishlar mohiyatini, xuquqiy-demokratik jamiyat qurish yo'lidagi yangiliklarni, O'zbekistonning jahon hamjamiyatga integratsiyalashuvi jarayonlarii yoshlarga etkazish.

Talabaga bilim berish, zamonaviy texnologiyalarning turlari va vositalari, slaydlar, kompyuter majmuasi, internet tizimi, videoproektor, kadaskop, flipgart, taqdimot slaydlari, doska, bor, majmua markerlar, magnitlar, A2, A3, A4 qog'ozlaridir. Bilim berish jarayonida bularning tutgan o'rni va ahamiyatiga e'tibor berib qo'llaniladi.

Ilmiy izlanishning vazifalari esa, ta'lim-tarbiyya jarayonida qo'llaniladigan ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari, darajalari va guruhlariga bo'lingan holda o'rgatiladi.

Tarix ta'limi vositalaridan foydalanishga innovatsion yondashuv, didaktik o'yinli, muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'llari, ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini loyihalashtirish tashkil e'tiladi.

Talabalarga fanni o'qitish jarayonida, keys-stadi, hamkorlikda o'qitish, loyiha texnologiyalaridan foydalanish uslublarini qo'llagan holda o'rgatiladi.

Bu ishning samarasi yanada yaxshi bo'lishi uchun talabalarga seminar darslarida, mustaqil ravishda taqdimot materiallarini tayyorlashga odatlantirish (o'rgatish) lozim.

Tadqiqot predmeti va obekti:

Fanning predmeti, nazariy metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati O'zbekiston tarixi jahon tarixining ajralmas qismi ekanligi;

O'zbekiston insoniyat tsivilizatsiyasining qadimiy o'choqlaridan biri, O'rta Osiyo hududida ibtidoiy jamoa tuzumi va uning davrlarga bo'linishi, o'zbek davlatchiligining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari, milliy davlatchilik qurilish tajribasini,

- o'zbek xalqining etnik shakllanishi, buyuk ipak yo'li shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, ilk o'rta asrlardagi o'zbek davlatchiligi, IX-XI asrlardagi o'zbek davlatchiligining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy, O'rta Osiyo xalqlari hayotida IX-XII asrlarda yuz bergan uyg'onish davri, ajdodlarimizning jahon tsivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, mo'g'ullar istilosi va zulmiga qarshi kurash, Amir Temur va Temuriylar davrida o'zbek davlatchiligining yuksalishi o'rganiladi.

Shuningdek, Turkistonning xonliklarga bo'linib ketishi Chor Rosssiyasining Turkistonne bosib olishi, chorizm istibdodiga qarshi Turkiston xalqlarining kurashishi. Jadidchilik, Turkistonda Mustabid Sovet hokimiyatining o'rnatilishi, uning mustamlakachilik mohiyati o'rganiladi.

O'zbekiston davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi, mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy, ma'naviy va ma'daniy taraqqiyoti, O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi o'rmini bilish va uni tahlil qilib o'rganish tadqiqot predmetining obektidir.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati:

O'zbekiston tarixida kechgan jarayonlaga nisbatan o'z nuqtai nazariga asosan xulosa chiqara olishi va o'z faoliyati, sohasining jamiyat tarixidagi o'rnnini belgilash ko'nikmasiga ega bo'lishi, uni ilmiy manbalar asosida o'rganilishi ishning amaliy ahamiyatidir. Yosh avlodda milliy g'oyani, yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirishda, milliy ong va sog'lom g'ururni uyg'otishda, yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda tarixiy tafakkurning ahamiyati ham O'zbekiston tarixini o'qitish jarayonida shakllantiriladi.

"Tarix millatning haqiqiy tarbiyasiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Axloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda"².

Vatan tarixida yaratilayotgan barcha ilmiy tadqiqotlar, o'quv qo'llanma, darsliklar, risola, maqola va boshqa o'quv materiallari, tarix fanidan doktorlik dissertatsiyalari uchun "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", "Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch" kabi asarlari asosiy dasturul – amal, metodologik – nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston tarixi fani taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlarini hisobga olgan holda talabalarga O'zbekiston tarixi fanidan milliy istiqlol g'oyasi bilan yo'g'rilgan tariximizni o'rgatish va o'tmishimiz haqidagi ma'lumotlarni berish ozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

- O'zbekiston tarixida eng qadimgi davrdan bugungi kungacha bo'lib o'tgan muhim voqealari hodisalar haqida ilmiy asoslangan bilimlarni etkazish;

² Каримов И. Ўзбекистон XXI аср, хавсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.: Ўзбекистон, 1997.-140 б.

- talabalarni etuk mutaxassislar etishishlarida yordamlashish;
- o'zi yashayotgan va atrofdagi hududlar tarixini bilishga qiziqtirish;
- bo'lajak mutaxassis kadrlarga chuqur milliy va umuminsoniy, tarixiy, g'oyaviy, siyosiy, ilmiy-nazariy dunyoqarashni singdirish shu maqsadda tarixiy ilmni keng o'rgatish;
- yoshlarda milliy tafakkur, g'urur va o'zlikni, milliy vijdon va umuminsoniy barkamollikni tarbiyalash;
- yoshlarda vatanparvarlik va harbiy jasoratni milliy va vatanga sadoqatlikni tarbiyalash;
- yoshlarga milliy va tarixiy qadriyatlarni e'zozlash, asrab avaylash ruxini singdirish, jarayonlarida yuksak axloqiy vazifalarni tarbiyalash;
- yoshlarni vatan va xalq millat, farzand, ota, ona, tabiat va jamiyat oldidagi muaddas burchlarini chuqur his etish va ularga sadoqat ruhida tarbiyalash professor o'qituvchilar oldidagi dolzarb vazifadir. O'zbekiston tarixini, O'zbek davlatchiligi tarixini yoshlarga yanada chuqurroq o'rgatishlari lozim.

1.2. O'zbekiston tarixi fanini o'qitishdagi innovatsiyalar va ilg'or xorijiy tajribalar.

O'zbekiston tarixi fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish hozirgi kundagi eng dolzarb vazifalardan biridir.

O'kuv jarayoni bilan bog'liq ta'lif sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy - pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol - javob tarzida qiziqarli tashkil kilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishslash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

“O'zbekiston tarixi” kursini loyihalashtirishda kuyidagi asosiy kontseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lif. Bu ta'lif o'z mohiyatiga ko'ra ta'lif jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'lifni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lif oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lif texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lif oluvchining faoliyatini aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'lifni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarini baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta’lim. Ta’lim mazmunini muammoli tarzda takdim qilish orqali ta’lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob’ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo’llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta’minlanadi.

Axborot taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo’llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o’quv jarayoniga qo’llash.

O’qitish usullari va texnikasi. Ma’ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta’lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O’qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o’zaro o’rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O’qitish vositalari: o’qitishning an’anaviy shakllari (garslik, ma’ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosa o’zaro munosabatlar.

Tsskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so’rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o’qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o’quv mashg’uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko’rinishidagi o’quv mashg’ulotlarini rejalashtirish, qo’ylgan maqsadga erishishda o’qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg’ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o’quv mashg’ulotida ham butun kurs davomida ham o’qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

“O’zbekiston tarixi” fanini o’qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan keng foydalaniladi. Ayrim mavzular bo’yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. “Internet” tarmog’idagi rasmiy saytlardagi ma’lumotlardai foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so’z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o’tkaziladi.

Innovatsion faoliyatining nazariy omillari.

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir.

A.I. Prigojining fikricha “*innovatsiya muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.*

Tadqiqotchilar (A.I. Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy, A.G.Kruglikov, A.S.Axiezer, N.P.Stepanov va boshqalar) innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o’rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: *yangilikning individual mikrosathi* va *alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o’zaro ta ‘siri mikrosathi*.

Birinchi yondashuvda hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g’oya yoritiladi.

Ikkinci yondashuvda alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o’zaro ta’siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birning o’rnini ikkinchisi egallashidir.

Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyiliği konsepsiyasini farqlaydilar.

Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o’lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yangi g’oya tug’ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish bosqichi. U kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.
2. Ixtiro qilish, ya’ni yangilik yaratish bosqichi.
3. Yaratilgan yangilikni amalda qo’llay bilish bosqichi.
4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiq etish bosqichi.

5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.

6. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi.

V.A.Slastenin yangilik kiritishni maqsadga muvofiq yo'naltirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi esa insonlarning ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalar bilan qondirish deb biladi.

Yangilik kiritishning tizimli konsepsiysi mualliflari (A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S. Tolstoy) innovatsion jarayonlarning ikki muhim shaklini farqlaydilar.

Birinchi shaklga yangilik kiritish oddiy ishlab chiqish sifatida kiritiladi. Bu ilk bor mahsulot o'zlashtirgan tashkilotlarga taalluqlidir.

Ikkinci shaklga yangilikni keng ko'lamda ishlab chiqish taalluqlidir.

Yangilik kiritish ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o'zaro ta'sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir.

Pedagogik innovatsiyada «yangi» tushunchasi markaziy o'rinn tutadi. Shuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va sub'ektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi.

Xususiy yangilik V.A. Slasteninning aniqlashicha, joriy zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko'zda tutadi.

Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma'lum unsurlarning yig'indisi **shartli yangilik** hisoblanadi.

Mahalliy yangilik konkret obektda yangilikning foydalanishi bilan belgilanadi.

Subektiv yangilik ma'lum obekt uchun obektning o'zi yangi bo'lishi bilan belgilanadi.

Ilmiy yo'nalishlarda **yangilik** va **innovatsiya** tushunchalari farqlanadi. **Yangilik - bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar.**

V.I. Zagvyazinskiy *yangi* tushunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi *yangi* bu faqatgina g'oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir. Lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmuan yoki alohida olingan unsurlari bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda ta'lif va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg'or boshlanmalarini o'zida aks ettiradi.

R.N. Yusufbekova *pedagogik yangilikka*, o'qitish va tarbiya berishda avval ma'lum bo'limgan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqelikning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni sifatida qaraydi.

Pedagogik innovatsiyada R.N. Yusufbekova *innovatsion jarayon tuzulmasining uch blokini farqlaydi*:

Birinchi blok - pedagogikadagi yangini ajratish bloki. Bunga pedagogikadagi yangi, pedagogik yangilikning tasnifi, yangini yaratish shart-sharoiti, yangilikning me'yordi, yangining uni o'zlashtirish va foydalanishga tayyorligi, an'ana va novatorlik, pedagogikadagi yangini yaratish bosqichlari kiradi.

Ikkinchi blok - yangini idrok qilish, o'zlashtirish va baholash bloki: pedagogik hamjamiyatlar, yangini baholash va uni o'zlashtirish jarayonlarining rang - barangligi, pedagogikadagi konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamiyatlarning yangini idrok etish va baholashga tayyorligi.

Uchinchi blok - yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, ya'ni yangini tadbiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatlarini va turlaridir. M.M. Potashnikning innovatsiya jarayonlari talqinlari kishi e'tiborini o'ziga tortadi. U innovatsiya jarayonining quyidagi tuzilmasini beradi:

- *faoliyat tuzilmasi - motiv - maqsad - vazifa - mazmun - shakl -metodlar - metodika komponentlari yig'indisi;*
- *subektiv tuzilma-innovatsion faoliyat subektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;*
- *sathiy tuzilma-innovatsion faoliyat subektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;*
- *mazmun tuzilmasi - o'quv-tarbiyaviy ishlari, boshqaruv (va b.)da*

yangilikning paydo bo'lishi, ishlab chiqilishi va o'zlashtirilishi;

- *bosqichlilikka asoslangan hayot davriylik tuzilmasi* — *yangilikning paydo bo'lishi - ildam o'sish - etuklik* — *o'zlashtirish - diffuziya* (*singib ketish, tarqalish*) — *boyish (to'yinish)* — *qoloqlik* — *inqiroz* ~ *irradiasiya(aldanish)* — *zamonaviylashtirish*;
- *boshqaruv tuzilmasi* — *boshqaruv harakatlarining 4 ta turining o'zaro aloqasi: rejalanadirish - tashkil etish - rahbarlik qilish - nazorat qilish*;
- *tashkiliy tuzilma* — *diagnostik, oldindan ko'ra bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tatbiq etuvchi*.

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iboratdir.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayoni kechishining 4 ta asosiylari qonuniyati farqlanadi:

- *pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bemarkomlik qonuni*;
- *nihoyat amalga oshish qonuni*;
- *qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni*;
- *pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuni*;

Ayovsiz bemarkomlik qonunida pedagogik jarayon va hodisalar to'g'risidagi yaxlit tasavvurlar buziladi, pedagogik ong bo'linadi, pedagogik yangilik baholanadi va u yangilikning ahamiyati va qimmatini keng yoyadi.

Nihoyat amalga oshish qonuni yangilikning hayotiyligi bo'lib, u erta yo kech, stixiyali yoki ongli ravishda amalga oshadi.

Qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni shundan iboratki, unda pedagogik innovatsiya fikrlashni bir qolipga tushirish va amaliy harakatga o'tish tendensiyasiga ega bo'ladi. Bunday holatda pedagogik qolip (stereotip) qoloqlikka, boshqa yangiliklarning amalga oshish yo'liga to'siq bo'lishga majbur bo'ladi.

Pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonunining mohiyati shundaki, unda yangilik yangi sharoitlarda qayta tiklanadi.

Pedagogik innovatsiya tadqiqotchilarini innovatsiya jarayonining ikki tipini farqlaydilar:

Innovatsiyaning birinchi tipi stixiyali o'tadi, ya'ni innovatsion jarayonda unga bo'lган ehtiyoj hisobga olinmaydi, uni amalga oshirishning barcha shart sharoitlari tizimi, usullari va yo'llariga ongli munosabat bo'lmaydi.

Innovatsiyaning ikkinchi tipi ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsulidir.

Oliy maktab innovatsion jarayonlari negizida quyidagi yondashuvlarni belgilash mumkin:

- *madaniyatshunoslik jihatidan (insonni bilishning ustuvor rivojlanishi)* yondashuv;
- *shaxsiy faoliyat jihatidan (ta'limdagi yangi texnologiyalar)* yondashuv;
- *ko'p subektlari (dialogik) yondashuv, ya'ni kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish;*
- *individual - ijodiy (o'qituvchi va talabalarning o'zaro munosabatlari asosida)* yondashuv.

Oliy maktabda innovatsion faoliyatning subekti o'qituvchi va uning shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda o'qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik bo'ladi.

S.M.Godninning ishlarida *talabaning shaxsiy xislatlari pedagogik jarayonning subekti sifatida yoritiladi*. Unga quyidagilarni kiritadi: o'qitishning hozirgi va kelgusi bosqichlari uchun qabul qilingan o'quv - tarbiya jarayonining maqsadi, vazifasi va ko'rsatmalarini anglay bilish; intellektual mehnatning yangi tadbirlarini egallash; maqsadga muvofiq kasbiy o'z - o'zini tarbiyalash va mustaqil tahsil olish, qiyinchiliklarni a'lo darajada enga bilish, o'sish va mustahkam o'rinnegi egallashning kengayayotgan intellektual va kasbiy imkoniyatlari, istiqbollari bilan qoniqish, o'zining sotsial roli funksiyasini bajarishida faol munosabatda bo'lish va hokazo.

Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlari *shaxsning o'z-o'zini boshqarishi va o'zini-o'zi safarbar qila olishi hisoblanadi*. Uning eng muhim yo'nalishlaridan biri **talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish**.

Bunday yo'nalish talabalarning o'quv ishlarini faollashtirish, ularning kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini o'z ichiga oladi.

Tayanch yo'nalishlar - ta'lif, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi, ularning o'zaro aloqalarida yangi tamoyillarga o'tish.

Shunday qilib, innovatsion faoliyat omillari nazariyasi tahlili uning eng muhim yo'nalishi *gumanistik aksiologya* ekan, degan xulosaga olib keladi.

Innovatsion faoliyatga aksilogik yondashuv insonning o'zini yangilik yaratish jarayoniga baxshida qilishi, uning tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar jamul-jamini anglatadi.

Aksiologya insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan-bir maqsadi sifatida qaraydi.³

O'quv mashg'ulotlarining shakllari (ma'ruzalar, amaliy va mustaqil mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari)

Aksariyat mamlakatlar oliy o'quv yurtlari uchun umumiy bo'lgan narsa (avvalo, yuksak taraqqiy etgan G'arb mamlakatlarida) ma'ruzalarga qatnashishning majburiy emasligi, aksincha, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga qatnashish majburiyligidir.

Masalan, Shvetsiyada ma'ruzalarga qatnashish majburiy emas, biroq amaliy mashg'ulotlarga (ular ma'ruzaga qaraganda 2 marta ko'p) qatnashish majburiyidir. Belgiyada ham xuddi shunday, lekin bu erda talab birmuncha jiddiy: talaba dars qoldirilgani sababini o'qituvchiga tushuntirishi, eng asosiysi, qoldirilgan dars materialini bilishi lozim.

Germaniyada ma'ruza va boshqa mashg'ulotlarga qatnashish majburiy yoki majburiy emasligi masalasiga har xil yondoshiladi: ma'ruza va boshqa darslarga qatnashish-qatnashmaslik chegaralangan bo'lib, u ixtisosning xususiyatiga bog'liqtsir. Bundan tashqari, ayrim mahalliy dasturlarning an'anasisiga ham bog'liqtsir. Shuni ham aytish joizki, mamlakat oliy o'quv yurtlarida talabaning joriy o'zlashtirishini baholash odati mavjud bo'lib, unga ko'ra semestrdagi haftalik soatlar hisobga olinadi: har bir soat biror muayyan fan bo'yicha har haftada o'tilgan 1 soat darsni taqozo etadi. Talaba ana shunday semestr — haftalik yiqqan soatlariga qarab og'zaki imtihonga kiritilishi yoki

³Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. Ўкув қўлланма. Т.: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006, 160 б.

kiritilmasligi mumkin. Buning ustiga, fanlarning aksariyati tanlovga ko'ra o'tiladi, ma'ruzalar esa (ayniqsa, yuqori kurslarda) konspektlashtirilganligi bilan xarakterlanadi. Gap shundaki, o'quv materialining favqulodda katta qismi talabalar zimmasiga mustaqil o'zlashtirish uchun yuklatiladi. Shuning uchun Germaniya oliv o'quv yurtlarida talabalarning mustaqil ishlashiga borgan sayin jiddiy ahamiyat berilmoqda. Buning uchun barcha sharoitlar muhayyo etilgan. Birinchi galda 5 kunlik o'quv haftasiga rioxalari qilinadi. Bir haftaga 20-22 soat auditoriya mashg'ulotlari to'g'ri keladi. Shunisi qiziqki, Germaniya oliv o'quv yurtlarida lektsiyaga odatda 1,5-2 soat ajratiladi. Ma'ruzada bir vaqtning o'zida 200 dan 1000 nafargacha talaba ishtirok etadi. Odatda, ma'ruzalar obzor xarakterida bo'ladi. Ma'ruzalar 45-60 daqiqa davom etadi (masalan: Buyuk Britaniya, Belgiya, AQSh, Kanada oliv o'quv yurtlarida). (Qarang: Barbariga A.A., Fedorova N.V., 1979: 89-95).

Rejaga ko'ra ma'ruzaning har bir soati ustida talabaning ikki soat mustaqil ishlashi to'g'ri keladi. Kezi kelganda qayd qilish kerakki, yopiq mantiqiy tsikl 45 daqiqadan oshadi. Bu turli xil tajribalar orqali, sinalgan. Binobarin, jahon mamlakatlarining aksariyatida (masalan: Germaniya, Frantsiya va boshqalarda) ma'ruzalar ikki soatga mo'ljallangan bo'lib, 2 qismda (45-50 daqiqadan) o'qiladi. Bu, ayniqsa, fundamental va umumiy ta'lim fanlari uchun muhimdir.⁴

Yuqorida aytilganidek, ko'p mamlakatlar (AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Norvegiya, Frantsiya, Italiya, Ispaniya va boshqalar) da bir semestrga beshta fan to'g'ri keladi. Bu haftasiga amaliy darslarda mustahkamlanishi shart bo'lgan 3-4 soatlik ma'ruzani tashkil etadi. Bunda talabalar juda ko'p darslarni mustaqil ish tarzida bajarishadi. AQShda samaradorlikka erishish uchun talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish metodikasiga bag'ishlangan har xil maxsus qo'llanmalar nashr etiladi. Shunisi ham borki, mazkur qo'llanmalar talabalar uchun ham, o'qituvchilar uchun ham mo'ljallangan bo'ladi. To'g'ri, talabalarning bu darajada mustaqil ishlashi hammaga bir xilda ma'qul emas. Masalan, talabalar mustaqil ishlari davomida bajarilishi lozim bo'lgan

⁴ Абдуллаев Ю.Н. Жаҳон олий мактаби: киёсий таҳлил. Ўқув кўлланма. Т.:Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001

vazifalarning tinimsiz ortib borishi turli e'tirozlarga sabab bo'lmoqda (AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya).

Buning oqibatida so'nggi 10-15 yil ichida Buyuk Britaniya, Kanada, Frantsiya, AQSh va boshqa mamlakatlar oliy maktablarida *tyutorlik tizimi* keng tarqaldi. Boshqacha aytganda, tyutor-rahbar (arzimagan ish haqi evaziga yuqori kurs talabalari yoki aspirantlar jalb qilinadi) talabalarining mustaqil ish bajarishlarini kuzatadi va bu jarayonda vujudga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etadi (qarang: Barbariga A.A., Fedorova N.V., 1979: 95-101; Lednev V.S., 1989: 91-120). Britaniya universitetlarida tyutorlar alohida o'rinni egallashadi. Bu erda ularning maqomlari farqlanadi. Oksford va Kembrij universitetlarida tyutor — mustaqil shtat birligi bo'lib, o'quv-tarbiya ishlarida o'ta muhim vazifalarni bajaradi; yangi universitetlarda esa ularning vazifalarini amalda ko'pincha shtatdagi o'qituvchi-ma'ruzachilar (masalan, talabalar referatiga rahbarlik) bajarishadi. Oksford va Kembrij kollejlarida tyutorlarni akademik hamjamiyat birligini ta'minlovchi muhim bog'lovchi zveno hisoblashadi. Tyutor — bu o'qituvchi, balki ustoz — talabalar tarbiyachisidir. U amalda bir-ikki talaba mashg'ulotlarini, ular bilan bevosita muloqotda bo'lib, butun o'quv kursi davomida nazorat qiladi. Uning vazifasi talabaning tegishli o'zlashtirishini va bo'lajak mutaxassis bo'lib shakllanishini ta'minlashdan iborat.⁵

Rivojlangan mamlakatlarning zamонавиј OO'Yu talabalarni o'qitish shakli va uslublariga kelsak, oliy o'quv yurti pedagogikasi etarli darajada xilma-xillikni namoyish etadi. Ulardan ayrimlari o'ta samaradorligi bilan ajralib turadi. Bunda, hech bir shubhasiz, masofadan o'qitish katta qiziqish uyg'otadi. Bu yangi, o'ziga xos ta'lim shakli, maxsus vositalardan metod va ta'lim usullaridan foydalanishni, o'qituvchi hamda talabalarining o'zaro hamkorligini taqozo etadi. U har qanday ta'lim tizimida mavjud bo'lgan tarkibiy qismlardan iborat: maqsadi, mazmuni, dasturlarning oliy o'quv yurtiga xosligidir. Unda jiddiy texnologiyalar qo'llanishi ajratib turadi: tarmoq yoki kompyuter telekommunikatsiyalari, chop etish vositalari jamlanmasi, kompakt-disklar va boshqalar (keys-texnologiyalar deb nomlanuvchilar).

⁵ Ўша асап

Masofadan o'qitish umumiyligi ta'limgizni, masalan, uzluksiz ta'limgizni bilan o'xshash. Ammo bu erda nafaqat tizimni, balki jarayonni ham farqlash kerak, ya'ni, o'quv faoliyatining bu turi bilan pedagogik loyihalashtirishni uning mazmun va pedagogik texnologiyalari, ta'limgiz metodlari va shakllari jihatidan bosqichga ajratish zarur. Elektron kurslar, elektron darsliklar, o'qitish vositalari kompleksi, tarmoqlarda ta'limgiz jarayonini tashkil etishning pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish — bularning barchasi pedagogik loyihalashtirish bosqichining vazifalaridir (Keegan, 1996: 8-14).

Masofadan o'qitishni uch turga ajratish mumkin. Ular kuyidagilarga asoslangan:

- 1) interaktiv televidenie (two-way TV).
- 2) kompyuter telekommunikatsiya tarmoqlari (mintaqaviy, global), foydalaniladigan konfiguratsiyalar (matnli fayllar, multidemiya texnologiyalari, videoanjumanlar) bilan bog'liq turli didaktik imkoniyatlar.
- 3) kompakt-disklar va Internet tarmog'i texnologiyalari uyg'unligi.

Interaktiv televideniega (two-way TV) asoslangan ta'limgiz turli masofadagi auditoriya bilan vizual aloqaga kirishish imkonini beradi. Agar bunda bu sohaga doir taniqli mutaxassislar jalb qilinib, noyob metodlar, laboratoriya ishlari namoyish etilsa, o'ta samarali bo'ladi. Bunda talabalar bilan o'qituvchilar yangi bilimlarni qo'llash sohalariga oid metodlarni, yangi axborot texnologiyalarini qo'llash ishtirokchisi bo'lib, bahs va munozaralarda qatnashishadi. Bu ta'limgizni malaka oshirish, mutaxassislarni maqsadli tayyorlashda, ayniqsa katta samara beradi. Ammo, hozircha, bu juda serxarajatdir (Ibid, 18).

Kompyuter telekommunikatsiyalaridan elektron pochta, teleanjumanlar rejimida foydalanish, boshqa mintaqaviy axborot tarmokdari hamda Internet bilan bog'liq masofadan o'qitishni tashkil etish yo'llari ham joriy bo'lmoqda. Bu eng keng tarqalgan hamda unchaliq qimmat bo'limgan masofadan o'qitish yo'li katta potentsialga ega. Bunday tashkil etilganda, imkoniyatga qarab eng yangi telekommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan, multimediya, Internetning barcha axborot resurslari, video va audioanjumanlarni qo'llash imkoniyatlari nazarda tutiladi (Burges, 1994: 13-17).

Masofadan o'qitishning yana bir yo'li bazaviy elektron darslik tayyorlashga borib taqaladi. Unda oliy ta'lism (hamda maktab ta'limi) va mutaxassislar malakasini oshirish uchun ulkan didaktik imkoniyatlar mavjud. Kompakt-disk interaktiv, multimediyaviy, ko'pincha katta axborot hajmiga ega va o'zining bu xususiyatlari bilan masofadan o'qitish jarayonini ancha optimallashtirishi mumkin.

Natijada oliy o'quv yurti (va hatto, kichik qishloq maktabi), Internetga qo'shilib, o'ziga ko'plab dunyo kutubxonalari katalogini, ma'lumotlar manbaini olish imkoniyatiga, muhandis, iqtisodchilar qo'llaydigan ilmiy tadqiqotlar natijalariga, aniq ma'lumotlarni jamlagan resurslarga ega bo'ladi, o'quv dastur ta'minotiga va ulkan fayllar arxiviga etishadi, talabalar o'qitishning superkompyuter dasturlaridan foydalanishadi (Carey, 1996: 6-9).

Hozirgi paytda jahon oliy ta'limida, ma'lumotlarning eng keng tarqalgan, Web-sahifalarda saqlanayotgan formati HTML (Hyper Text Markupe Language) — gipermatnli sahifalarni yaratish tili hisoblanadi. Bu tilning yangi variantlari (versiyalari) uzluksiz yaratilmoqda. Masalan, HTML 5.0, oldingi versiyaga nisbatan turli ranglar, harflar, chiziqlar, fan turlari hamda murakkabroq jadval unsurlari, kompleks audioelektronlar kabilardan foydalanish imkoniyatini berib, axborotlar zichligini ancha oshiradi (Keegan, 1996: 180-186).

Demak, xorijiy oliy ta'limda mavjud ochiq va masofadan o'qitish tarmoklari bir kator modellarga asoslanadi:

Birinchi model — ekstermat bo'yicha ta'lim maktab yoki OO'Yu talablariga mo'ljallangan va qandaydir sabablarga ko'ra kunduzgi o'quv muassasalariga qatnay olmaydigan o'quvchi va talabalar uchun.

Ikkinchi model — masofali universitet ta'limi — sirtqi (ochiq shakllar) yoki masofadan, ya'ni yangi axbo-rot texnologiyalari, shu jumladan, kompyuter texnologiyalari 8 (off-campus) asosida tashkil etiladi.

Uchinchi model — bir necha o'quv muassasalari hamkorligiga asoslangan ta'lim. U asosiy fanlar uchun bir nechta o'quv muassasalariga bir xil sirtqi masofadan o'qitish dasturlarini birgalikda tayyorlashni nazarda tutib, sifatini yaxshilaydi va ularning kamxarj bo'lishi imkoniyatini beradi. Bunday amaliyot, misol uchun, Keprikon universitetlariaro

teleko'rsatuylar dasturida (Capricom Interuniversity Teleducation Programm, 1990) amalga oshirilgan. Uni ishlab chiqarishda Argentina, Boliviya, Braziliya, Chili va Paragvay universitetlari qatnashishgan. Bu mamlakatlar talabalari korpozitsiyaga kiruvchi har qanday universitetda o'qishlari mumkin. Boshqa bir misol sifatida «Ta'linda hamdo'stlik» (Commonwealth of Education, 1992) dasturini keltirish mumkin.

To'rtinchi model — ochiq yoki masofadan o'qituvchi muxtoriyatga ega ta'lim muassasalari. Ularda talabalar turli yo'naliishlarda o'qishlari mumkin. Ular multimediya kurslarini yaratishga ham ixtisoslashgan.

Bunday eng yirik muassasa (masalan, Buyuk Britaniyada) Londondagi Ochiq universitet hisoblanadi. So'nggi yillarda uning bazasida Buyuk Britaniya va Hamdo'stlik mamlakatlardan ko'plab talabalar o'qishadi. AQShda esa Milliy texnologiya universitetini (Kolorado shtati) ko'rsatish mumkin. Unda 40 muhandislik kollejlari bilan hamkorlikda turli muhandislik mutaxassislari tayerlanadi. 1991 yilda universitet masofadan o'qitish tarmog'i orqali, Shtat hukumati va biznes sohasi bilan yaqin hamkorliqda 40 kollejni birlashtirdi. Bunda o'qitish haqini to'laligicha talabalar ishlashayotgan firma va tashkilotlar to'lashadi.

Beshinchi model — ochiq turda — alohida ta'lim tizimlarida o'qitish hisoblanadi. Bu — mustaqil ta'lim bo'lib, to'liq TV, videoyozuylar yoki radiodasturlar hamda qo'shimcha didaktik vositalar yordamida olib boriladi. Amerika sanoat televizion loyihasi, Nikaragua radiosining o'qitish Loyihasi va boshqalar bunga misol bo'la oladi.

Oltinchi model — multimedya dasturlariga asoslangan neformal integratsiyalashgan masofadan o'qitish. U qandaydir sabablarga ko'ra maktab ma'lumotini olib ulgurmagan katta yoshdagi kishilarga mo'ljallangan. Bunday loyihamar rasmiy ta'lim dasturlarining bir qismi yoki ma'lum maqsadga maxsus mo'ljallangan (masalan, Britaniya savod dasturi) hamda sog'lomlashtirish dasturlari (masalan, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun) bo'lishi mumkin (Burgess, 1994:41-44).

Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning tamoyillari

Ayrim taraqkiy etgan mamlakatlarda oliy o'quv yurt-lari miqdori va sifat parametrlariga ko'ra talabalar bilimini baholash tamoyillarini ko'rib chiqamiz.

AQSh da «Bilimlarni kredit usulida baholash» tizimidan foydalaniladi: har bir o’rganilayotgan kurs kredit sonlari va birliklari shaklidagi bahoga egadir. Ular kursga ajratilgan soatlar miqdoriga ko’ra belgilanadi. Masalan: «a’lo» bahoga loyiq 1 kredit 4 ballga teng, 3 balli kredit esa «yaxshi» demakdir. Ballarning yakuniy miqdori har bir fan bo’yicha olingan kreditlar soni erishilgan birliklari soniga ko’paytirilganda aniqlanadi. O’zlashtirish umumiy ballar sonini kreditlar soniga bo’lish natijasida erishilgan o’rtacha ballga qarab belgilanadi. Bunda talaba to’plagan o’rtacha ball kamida 2 ga teng bo’lsa o’zlashtirgan hisoblanadi.

AQSh oliv o’quv yurtlarida bir sinov birligi ma’ruza (yoki sinfda o’tkaziladigan boshqa darslar) darsining haftadagi bir soatiga, o’tkazilgan har bir alohida fan bo’yicha mustaqil ishning esa uch soatiga tengdir.

Muayyan bir OO’Yu talabalar bilimini baholash tizi-miga murojaat etilsa, bunda ma’lumotlar ancha dalillanadi, misol uchun, Massachusetts texnologik institutida: har qanday fan 9-12 sinov birligi bilan baholanadi (bir birlik 14 soat auditoriya va mustaqil mashg’ulotlarga teng); bir semestrda 45-48 sinov birligi me’yordagi yuklanma hisoblanadi; o’quv yili ikki semestrdan iborat bo’lib, har qaysisi o’rganilgan fan bo’yicha imtihon bilan yakunlanadi.

Buyuk Britaniyada bilimlarni baholashning ko’p balli tizimi mavjud bo’lib, unda o’qituvchi bir necha balli baho qo’yadi (keyingilari o’quv rejasida aniqlashtiriladi). O’quv yili badalida har xil bosqichlarda to’plangan ballar jamlanib, oliv o’quv yurtida mavjud bo’lgan normalarga muvofiq talabaning o’zlashtirishi aniqlanadi. Ana shu ballar yig’indisiga binoan talabani kelgusi kursga o’tkazishga qaror qilinadi (majburiy imtihonlar bo’lmagan hollarda) (yana xususan qarang: Barbariga A.A., Fedorova N.V., 1979: 70-78).

Shvetsiyada ixtisoslashgan oliv o’quv yurtlarida o’quv yili ikki semestrdan iborat bo’lib, u 8 ta modul (davr)ga bo’linadi. Har bir modul o’quv mashg’ulotlari, mustaqil ish va tegishli imtihon hisoboti shakllarini o’z ichiga oladi. Natijada, odatdagidek, modullar bo’yicha to’plangan bal-lar yig’indisidan umumiy baho chiqariladi (yana qarang: Fegerlind I., 1990: 105-106).

Gretsiyada esa semestrli o'qish mavjud. Har yilgi (talabani yuqori kursga o'tkazish uchun zarur bo'lган) imtihonlar mustasno qilinadi. Oliy ma'lumot olish uchun zaruriy miqdorda kredit birliklarni yig'ib (dastavval, ixtisos fanlaridan) belgilangan semestrlar davomida o'qish lozim bo'ladi.

Islandiyada kredit birliklarini jamlab talaba o'tilgan materialning hajmini aniklaydi. Odatdagidek bir kredit birligi bir o'quv haftasi bilan bog'liq bo'ladi. Bunday holda, masalan, bakalavr darajasini olish uchun ixtisos sifatida tanlangan fandan 90 kredit birlik to'plash kerak. Shunisi diqqatga sazovorki, mamlakatda bir yo'la ikkita ixtisoslikni egallash imkoniyati mavjud. Bunda asosiy fandan 60 ball, unga yaqin bo'lган fandan esa 30 ball to'plash darkor.

Isroilda talabalar bilimini baholovchi asosiy tizim sinov kredit birliklaridir. Bakalavr shkalasi 1 dan 100 gacha. Ball qo'yilishda 5 ballik intervalga riosa qilinadi. «O'tadigan» ball — N baho bo'lib, uning hajmi 50 dan 60 gacha bo'lган ballar doirasida aniklanadi (ayrim oliy o'quv yurtlarida ball yig'indisi birmuncha kamayish tomonga og'adi, ya'ni bu shunday belgilanadi $50 < N < 60$).

Germaniya oliy o'quv yurtlarida joriy o'zlashtirish semestr — haftalik soatlariga muvofiq aniklanadi.

Aniqrog'i, har bir soat muayyan o'quv fanidan bo'ladigan mashg'ulotni taqozo etadi va semestr davomida har haftaga 1 soatdan to'g'ri keladi. Tegishli fandan yig'ilgan semestr — haftalik soatlar jamlanganda, talabaning og'zaki imtihonga qo'yilishi yoki kiritilmasligi aniklanadi.

Jahon mamlakatlarining ko'pchiligida talabalarning bilimini baholashda semestr davomida «joriy o'zlashtirish»ga katta ahamiyat beriladi. Aynan ana shu narsa imtihon davrida ma'lum bir fanning yakuniy bahosiga muayyan ta'sir ko'rsatadi.

II-BOB. O'ZBEKISTON TARIXI FANIDAN ELEKTRON O'QUV

MODULI IShLANMASI.

2.1. “Sovet davlatida ma'muriy buyruqbozlik tuzumining kuchayishi va inqirozi davrida O'zbekiston (1946-1991)” mavzusidan ma'ruza matni

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Nº	Faoliyat turi	Mas'ul shaxs
	<p>1.Tayyorlov bosqichi:</p> <p>Dars maqsadi: Talabalarni, O'zbekistonda 50-70-yillarda o'tkazilgan iqtisodiy islohotlar, ularning samarasizligi. Rivojlanishda ekstensiv usulning hukmronligi. Iqtisodiyotning bir tomonlama, xom-ashyo etishtirish tomon yo'naltirilishi. Paxta yakkahokimligining oqibatlari, ekologik xolatning buzilishi. Agrar siyosatdagi nomutanosiblik, Orol fojiasi, 50-80-yillarda respublikaning madaniy xayoti, ilm-fan, adabiyot va san'at, ta'limgarbiya va turmush, oliy va o'rta ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash, ma'naviy xayotda mafkuraviy cheklashlar, buyruqbozlikning kuchayishi, xalqni milliy kadriyatlar, ma'naviy merosdan begonalashtirish, o'zbek tilini qo'llashda kamsitish xollari, ijtimoiy fanlar, adabiyot va san'at asarlarida, radio va televidenie, kino va teatr faoliyati, ularda real xayotdan chekinish xollari, tashqi iqtisodiy va madaniy aloqalar, Sharof Rashidov-davlat va jamoat arbobi, 80-yillarning o'rtalarida SSSRning ijtimoiy-siesiy, iqtisodiy, ma'naviy xayotida inqirozli vaziyatning yanada keskinlashuvining mohiyati va oqibatlarini ochib berish.</p> <p>Identiv o'quv maqsadlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Xalq xo'jaligining tinch qurilishga o'tishini izohlaydi. 2. Industriyaning bir tomonlama rivojlanishiga baho beradi. 	O'qituvchi

	<p>3. Paxta yakkahokimligi va uning salbiy oqibatlarini ochib beradi.</p> <p>4. Yangi erlarni o'zlashtirish maqsadlarini tahlil qiladi.</p> <p>5. Sovetlar, jamoat tashqilotlari vazifalarining cheklanishini ochib beradi.</p> <p>6. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi oqibatlarini tushuntiradi.</p> <p>7. Siyosiy qatag'onlarga baho beradi.</p> <p>8. Mehnatkashlar turmush darajasining pasayishini izoxlaydi.</p>	
I	<p>Kirish.</p> <p>1. Mavzu va ko'rilaqdagidan masalalar tushuntiriladi.</p> <p>2 Guruhdagi talabalarga savollar beriladi va ularning fikrlari so'raladi.</p>	O'qituvchi
II	<p>Guruhda va mikroguruhlarda ishlash:</p> <p>1.Talabalarning fikrlari ketma–ketlikda, boshqa fikr e'tirozlar bormi? – deb so'raladi. Bor bo'lsa, izohlash talab qilinadi. Boshqa talablar bahsga jalb qilinadi.</p> <p>2.Talabalar fikrlaridagi o'xshashlik va qarama qarshi tomonlar hamkorlikda aniqlanadi, boshqa fikrlar ham tahlil qilinadi.</p> <p>3. Barcha talabalar tomonidan aytilgan fikrlar umumlashtiriladi va tahlil qilinadi va eng to'g'ri fikrlar jamlanadi.</p> <p>4. Aytilgan g'oyalar to'ldiriladi.</p>	O'qituvchi - talaba
V	<p>Yakuniy fikrlar aytiladi. Talabalar bilimini baholash uchun UUM dagi test savollari beriladi.Talabalar bilimi baholanadi. (baholash asosida)</p>	O'qituvchi, talaba

Urushdan keyingi yillarda O'zbekistonning iktisodiy xayoti. Sanoat va transport. Angren, Olmalik, Guliston, Yangier, Navoiy, Kuvasoy, Taxiatosh va boshka yangi sanoat shaharlarining vujudga kelishi.

Respublikamizning agrar xujaligi. Qo’riq va bo’z erlarning o’zlashtirilishi.

O’zbekistondagi demografik jarayonlar xususiyatining e’tiborga olinmaganligi oqibatlari. “Soxta urbanizatsiyalashtirish”.

O’zbekistonda 50-70-yillarda o’tkazilgan iqtisodiy islohotlar, ularnipyg samarasizligi. Rivojlanishda ekstensiv usulning hukmronligi. Iqtisodiyotning bir tomonlama, xom-ashyo etishtirish tomon yo’naltirilishi. Paxta yakkahokimligining oqibatlari, ekologik xolatning buzilishi. Agrar siyosatdagi nomutanosiblik. Orol fojiasi.

50-80-yillarda respublikaning madaniy xayoti. Ilm-fan. Adabiyot va san’at. Ta’lim-tarbiya va turmush. Oliy va o’rta ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash.

Ma’navpy xayotda mafkuraviy cheklashlar, buyruqbozlikning kuchayishi. Xalqni milliy kadriyatlar, ma’naviy merosdan begonalashtirish, o’zbek tilini qo’llashda kamsitish xollari. Ijtimoiy fanlar. Adabiyot va *san’at asarlarida, radio va televiedenie, kino va teatr* faoliyati, ularda real xayotdan chekinish xollari. Tashqi iqtisodiy va madaniy aloqalar.

Sharof Rashidov-davlat va jamoat arbobi.

80-yillarning o’rtalarida SSSRning ijtimoiy-siesiy, iqtisodiy, ma’naviy xayotida inqirozli vaziyatning yanada keskinlashuvi.

«Qayta qurish» kontseptsiyasi va uning cheklanganligi. Qayta qurish yillarida O’zbekistonda ijtimoiy-siyosiy xayot. «Paxta ishi», «O’zbeklar ishi» va ularning salbiy oqibatlari.

Iqtisodiyotni isloh qilish yo’lidagi urinishlar, uning barbod bulishi, sabablari. Farg’ona fojeasi.

80-yillarning oxirlarida Islom Karimovning O’zbekiston Kompartiyasi Markaziy qumitasiga birinchi kotib etib saylanishi. Respublika ijtimoiy - siyosiy xayotida o’zgarishlarning boshlanishi. Kadrlar siyosatida milliy manfaatlar ustuvorligining o’sib borishi. «Paxta ishi»ning qayta qurilishi va tarixiy adolatning tiklanishi. O’zbekiston Respublikasi «Davlattili haqida»gi qonunning qabul qilinishi.

1990 yil fevralida O’zbekiston Oliy Kengashiga o’tkazilgan saylovlar.

O'zbekistonda Prezidentlik lavozimining ta'sis etilishi Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti etib saylanishi. Mustaqillik Deklaratsiyasining qabul qilinishi va uning ahamiyati.

1991 yil avgust voqealari, markaziy davlatchilik tangligi va SSSRning tanazzulga yuz tutishi.

2.2. MA’RUZA MATNI

Mavzu: Sovet davlatida ma’muriy buyruqbozlik tuzumining kuchayishi va inqirozi davrida O’zbekiston(1946-1991)

REJA

1. Urushdan keyingi yillarda O’zbekistondagi iqtisodiy hayot.
2. Respublikaning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti.
3. Paxta yakkahokimligining kuchayishi va uning salbiy oqibatlari.
4. »Qayta qurish» siyosati va O’zbekistonning mustaqillik tomon yo’l tutishi.

Tayanch iboralar: ASSR, GKChP, DXQ, IIB, KGB, KP, KPSS, MK OAV, RSFSR, SSSR ittifoqi, SSSR, O’zbekiston SSJ, O’zkompartiya, O’zbekiston SSR, O’zbekqishloqmash, VKP(b) MQ, Paxta yakkahokimligi, Paxta ishi, O’zbek ishi, O’zKP(b) MK, SATU, shahidlar xotirasi, ozod uyushma, jinoiy ishlar, agrar tanglik, qayta qurish, orol fojeasi, intensiv rivojlantirish.

2.2.1 Urushdan keyingi yillarda O’zbekistondagi iqtisodiy hayot.

MAQSAD: Urushdan keyingi yillardagi O’zbekistonda iqtisodiy hayotda ro’y bergan voqealari bilan talabalarni tanishtirish, ularni ma’muriy-buyruqbozlik tizimi oqibatlarini to’g’ri tahlil qilishga o’rgatish.

IDENTIV O’QUV MAQSADLARI:

9. Xalq xo’jaligning tinch qurilishga o’tishini izohlaydi.
10. Industriyaning bir tomonlama rivojlanishiga baho beradi.
11. Paxta yakkahokimligi va uning salbiy oqibatlarini ochib beradi.
12. Yangi erlarni o’zlashtirish maqsadlarini tahlil qiladi.

Urushning tugashi endi barcha kuch-quvvatni respublika xalq xo’jaligni rivojlantirishga, urush oqibatlarini tugatishga qaratishni talab etardi. Bu oqibatlar og’ir edi: respublika sanoatini tiklash uchun, aholini oziq-ovqat va xalq xo’jaliq mollari bilan ta’minlash uchun yoqilg’i, elektr energiya, xom ashyoga, shuningdek, malakali ishchi va injener xodimlarga tanqislik sezilarli edi. Shu sababdan O’zbekistonning geografik holati, milliy an’analari, xalq manfaatlarini

hisobga olib, xalq xo'jaligini rivojlantirishning aniq dasturini ishlab chiqish zarur edi. Biroq bu yillar davlat ustidagi organ bo'lib qolgan partiyaning totalitar hukmronligi bilan harakterli edi. Partiya zo'ravonlik siyosatini o'tkazib, turmushning barcha masalalarini o'ziga qaratib olgan edi. Partiyaning ulkan rejalarida O'zbekistonga faqat xom ashyo etkazib beruvchi bir qo'shimcha manba deb qaraldi. Bu narsa esa O'zbekiston iqtisodiyotini bir tomonlama rivojlanib borishiga olib keldi. Bunday sharoitda O'zbekiston o'zining boy xom ashyo resurslarini tayyor mahsulotga aylantirishga imkon bermas edi. Partiya rahbarlari O'zbekistonning mamlakat asosiy paxta bazasi sifatidagi o'rnini hisobga olib, birinchi galda asosan qishloq xo'jaligiga tegishli industrial ishlab chiqarishni rivojlantirishdan boshlash kerak deb bir qolipda fikr yuritar edi. Paxtachilikni, xususan paxta yig'im-terimini kompleks mexanizatsiyalashni tugallash vazifalari o'rtaga qo'yilib, bo'larni ado etish uchun katta moddiy mablag', malakali kadrlar kerak edi. Sanoat, xalq xo'jaligi boshqa sohalarining taraqqiyoti tamomila paxtachilik manfaatlariga qaram qilib qo'yildi. Paxtachilik hamda irrigatsiya qurilishi uchun turli mashinalar ishlab chiqaruvchi mashinasozlik zavodlari qayta qurish va yaratish ko'zda tutildi. "Tashselmash", "O'zbekselmash", "Krasniy dvigatel", "Pod'emnik" va boshqa zavodlar paxtachilikni rivojlantirish maqsadlariga moslashtirildi. Chirchiq elektr qimyo kombinati mineral o'gitlar ishlab chiqarishga o'tkazildi va h.k.

Mamlakatning ichki resurslari, tabiiy boyliklari va arzon ishchi kuchini g'oyat kuchli ekspluatatsiya qilish evaziga, xorijiy sarmoyalardan bosh tortgan holda olib borilgan iqtisodiyotni tiklash xalq boshiga og'ir kunlarni keltirdi. O'zbekiston xalq xo'jaligini, ayniqsa chorvachilikni tiklash ishlari ancha og'ir o'tdi. 1945 yil 15 iyuldan Markaziy hukumatning "O'zbekistonda paxtachilikni tiklash va yanada rivojlantirish choralarini to'g'risida"gi qarori asosida paxta yakkahokimligi kuchaytirildi va O'zbekistonning markazga bog'liqligi yana ham mustahkamlandi. Ob-havoning injiqligi, tiklash ishlarining qiyinchiliklariga qaramay, 1950 yilgi tayyorlangan paxta 2.220 ming tonnaga etdi.

50-60 yillarda sanoat va qishloq xo'jaligini boshqarish tizimiga ayrim o'zgarishlar kiritildi. Jumladan, 1954-1956 yillari ittifoq miqyosidagi bir qator yiriq korxonalar respublika ixtiyoriga o'tkazildi. Natijada sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning salmog'i 31 foizdan 55 foizga ko'tarildi. Xo'jalikni boshqarishda iqtisodiy omillarga suyanish, mehnat manfaatdorligini oshirish va boshqa tadbirlar o'z samarasini bermadi, chunki jamiyatda tub islohotlar o'tkazilmadi. Sanoat va qishloq xo'jaligi ekstensiv yo'l bilan, ya'ni tabiiy boyliklardan o'rinsiz, hisobsiz foydalanish, butun xalqning mehnatini xaddan ortiq ekspluatatsiya qilish hisobiga 60-70 yillarda sanoatning yangi sohalari vujudga keldi.

50-60 yillari O'zbekistonda paxta maydonini yanada kengaytirish maqsadida qo'riq va bo'z erlarni o'zlashtirish ishlari olib borilib, 1945-1985 yillari qariyb 2.400 ming hektar yangi erlar o'zlashtirildi. Sug'orish ishlarini yaxshilash uchun sun'iy suv omborlari qurildi.

Qishloq xo'jaligi uchun traktor, paxta terish mashinasi va boshqa texnika uskunalari tayyorlab berildi. Paxtachilikning moddiy texnika bazasini mustahkamlash bilan birga paxta hosildorligini oshirish uchun qimyoviy moddalardan cheksiz foydalanildi. Ko'rilgan tadbirlar natijasida 1970 yili respublikada paxta maydoni 1.700.000 hektarni tashqil qildi, yalpi hosil 4.495.000 tonnaga etdi.

Yiriq sanoat korxonalarining vujudga kelishi bilan respublikaning Ittifoqqa bog'lanishi yana ham kuchaydi. Prezident I.A. Karimov: "...u paytda *O'zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga - markazga butunlay qaram, izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo'lgan yarimmustamlaka mamlakatga aylangan edi*", deydi.

1985 yilning bahorida qishloq xo'jaligi boshqaruv tizimiga o'zgartirish kiritilib, mehnatni tashqil etishning brigada yoki oila pudrati, ijara singari yangi shakllari joriy etildi. Lekin markazda ma'muriy buyruqbozlik boshqaruv tartibi saqlangan holda ko'rilgan tadbirlar, qayta qurishlar natija bermadi. Jamiyatda, xususan, iqtisodiyotda inqirozli holatlar kuchaya bordi. Qayta qurish deb boshlangan quruq kompaniya Prezident I. Karimov ta'biri bilan aytganda "hamma yoqni buzib, baqir-chaqir, o'g'rilik, qotillikni kuchaytirdi".

XII besh yillik vazifalari, ilgarigi uch besh yilliklardiagi kabi, bajarilmay qoldi. O'zbekistonda milliy daromadning o'sishi 80-yillar birinchi yarmida o'rta hisobda 3,3 foizni tashqil qildi.

Paxta ekin maydonlarining o'rinsiz kengaytirilishi va agrotexnika qoidalarining buzilishi tufayli arning hosildorligi pasayib ketdi. Xosildorlikni oshirish uchun ekin maydonlarida haddan tashqari ortiqcha mineral o'gitlardan foydalanish oqibatida bu erlar, ma'lum bir vaqtidan keyin, batamom yaroqsiz holga kelib qoldi. Qo'riq va bo'z erlarni o'zlashtirish, O'rta Osiyoning yirik daryolari suvlaridan nazoratiz foydalanish, o'lkada o'rinsiz ravishda sun'iy suv havzalarining qurilishi natijasida Orol dengicha asta-sekin quriy boshladi va XX asrining eng yirik "*Orol fojeasi*" vujudga keldi.⁶

⁶ Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. 2-китоб. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Т.: 2000. 563 бет.

2.2.2. Respublikaning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti.

MAQSAD: Urushdan keyingi yillarda O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotdagi salbiy hodisalar bilan tanishtirish, voqealarni to'g'ri tushunib, ularni to'g'ri va xolisona baholashga o'rgatish.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

- 2.2.2. Sovetlar, jamoat tashqilotlari vazifalarining cheklanishini ochib beradi.
- 2.2.3. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi oqibatlarini tushuntiradi.
- 2.2.4. Siyosiy qatag'onlarga baho beradi.
- 2.2.5. Mehnatkashlar turmush darajasining pasayishini izoxlaydi.

O'zbekistonning iqtisodiy ahvolidagi noxush holatlarning ijtimoiy oqibatlari og'ir bo'ldi. O'lkaning o'ziga xos demografik holati hisobga olinmasdan davlat byudjetidan ijtimoiy sohaga ajratiladigan mablag' qoldiq printsipiga asoslanib yildan-yilga qisqarib bordi. Ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish masalalarida miqdoriy o'sishlar ko'zga tashlanganligi bilan, aslida bo'lar inson talabini qondirmas edi. Respublika bu sohalardagi ko'rsatkichar bo'yicha sobiq 15 respublika o'rtaida 13-14 o'rnlarda turdi.

80-yillarda fan, madaniyat va xalq ta'limiga ajratilagn harajatlar davlat byudjetining atigi 2,7 foizini tashqil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatgich 1989 yili Evropa mamlakatlarida 5,5 foizni, Afrika mamlakatlarida 5,4 foizni tashqil qilgan. Bolalar o'limi, oshqozon-ichak va yuqumli kassaliklar bo'yicha O'zbekiston sobiq SSSRda birinchilar qatorini eagalladi. Aholining o'rtacha yoshi 1970 yil 72 yosh bo'lsa, 1980 yili bu ko'rsatqich 67,7 yoshni tashqil qildi. Bunga asosan sabab ekologik vaziyatning keskinlashuvi bo'ldi. Jafokash, zahmatkash O'zbek xalqining turmush darjasini achinarli ahvolda bo'lib, boshqa respublikalar bilan qiyoslaganda oxirgi o'rnlarda edi. Boshqacha bo'lishi mumkin emas edi.

Davlat bosh espluatator rolini bajargan sotsialistik tizmida *mehnatkash* aholi o'z kuchi bilan yaratgan mahsulotning atigi 25-30 foizi hajmidagina haq oldi. Sobik ittifoqning sanoat rivojlanishi, yadro qurollarni ishlab chiqarish, koinotni o'zlashtirishdagi yutuqlariga katta hissa qo'shgan O'zbekistonning million

tonnalab paxtasi, nohaq, surbetlarcha, adolatsiz hisob-kitob qilindi. O'sha davrning mehnat ilg'orlari sovet tizimidagi sotsial siyosatning og'ir oqibatlarini xali ham ko'rishyapti.

Totalitar tizim jarayonida o'lkadagi madaniy-ma'rifiy ishlar e'tibordan chetda qolmadi. O'zbekistonda 6 mingdan oshiq maktab bo'lib, ularda 42.000 o'qituvchilr dars berdi., 1 mln.dan ortiq o'quvchi ta'lim oldi. Sanoat ishlab chiqarishning ishchi kadrlarga talabini qondirish uchun fabrika, zavodlar qoshida maxsus o'quv yurtlari ochildi. O'rta Osiyoda oliy ta'limning beshigi, hozirgi O'zMU bir qancha oliy o'quv yurtlariga asos bo'ldi. Respublikada 30 dan ortiq oliy, 100 ga yaqin o'rta maxsus o'quv yurtlari ishlab turdi.

Adabiyot va san'at sohasida jahonga mashhur yozuvchilar va shoirlar etishib chiqdi, teatr va kino san'ati rivojlandi. Madaniy-oqartuv muassasalarining soni ortib bordi.

Achinarlisi shundaki, respublikada ta'lim-tarbiya, madaniy-ma'rifiy ishlar "*Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik*" shiori ostida olib borildiki, asl maqsad "baynalminalchilik" niqobi bilan pardalanib, o'lkaza rus madaniyatini, ularning turmush tarzini tarqatishdan iborat bo'ldi. 1983 yil 19 martda O'zbekiston rahbariyati milliy maktablarda majburan rus tilini o'qitish to'g'risida qaror qabul qilindi. O'qishlar va idoralarda ish yuritishlar 1929 yildan boshlab lotin, 1940 yildan boshlab kirill alifbosida olib borildi. Shu tariqa xalqimiz asrlar davomida yaratilgan tarzimiz, madaniyatimizni o'rganishdan respublikaning tub aholisi mahrum bo'ldi. 1927 yili o'tkazilgan "Hujum" harakati oqibatida, bir tomondan, o'zbek xotin-qizlari jahon taraqqiyotiga tortilgan holda, ikkinchi tomondan, ular industriyalashtirish girdobiga keng jalb qilinib, o'zlarining tabiiy burchlarini bajarish hamda sharqona fazilatlaridan mahrum bo'ldilar.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar kompartiyaning g'oyalarini, sotsialistik mafkurani omma o'rtasida keng tarqatish yuzasidan faol ishlar olib bordi.

Fashizmga qarshi urush yillari izdan chiqqan ta'lim-tarbiya ishlari, madaniy-oqartuv muassasalari urushdan keyingi yillarda qayta tiklandi va kengaytirildi. 1970 yili Respublikada **2977 ta klub muassasalari, 5822 ta kutubxonalar, 26 ta**

muzey, 3988 ta kinoqurilmalar ishlab turdi. Lekin, amalda bu muassasalarning bir qismi statistik axborotlarda oshirilib ko'rsatilgan, boshqa qismi har xil sabablarga ko'ra faoliyatini deyarli to'xtatib qo'ygan. Ularning moddiy texnika bazasi qoniqarsiz bo'lib, moliyaviy yordamga muhtoj, ayniqsa qishloq joylarda tashlandiq ahvolda edi. Qanday bo'lmasin bu muassasalar marksizm-leninizmning soxta g'oyalarini, sotsialistik qurilish amaliyotini tashviqot-targ'ibot qilishning qudratli quroli bo'lib xizmat qildi.

Urushdan keyin majburiy 7 yillik, 1959 yildan 8 yillik, 1970 yildan boshlab 10 yillik ta'lim amalga oshirila boshlandi. 1980 yillarda o'rta va oliy ta'lim tarmoqlari kengayib bordi. 1990 yil O'zbekistonda maktablar soni 9.000 ga etdi, lekin ulardan 1700 tasi vayrona ahvolda bo'lib, kapital ta'mirlashni talab qilar edi. 1978-79 o'quv yilida respublikada 43 ta oliy o'quv yurti bo'lib, bo'larning kunduzgi, sirtki, kechki bo'limlarida 26.000 talabalar o'qidi. Respublika fanlar Akademiyasida ilmiy-tadqiqot institutlarining qatori kengayib, ularda yirik olimlar ilmiy izlanish ishlarini olib bordilar.

Talabalar, oliy ma'lumotli mutaxassislar, ilmiy xodimlarning soni jihatidan 10.000 kishiga hisoblaganda O'zbekiston ilg'or mamlakatlar qatorida tursa ham, kadrlar tayyorlash tizimida qo'pol nuqsonlar bor edi. Oliy o'quv yurtlariga viloyatlardan qat'yan reja asosida qabul qilish, qanday o'qimasin, ularni bitirib chiqarish natijasida ko'pincha malakasi etarli bo'lмаган mutaxassislarga diplom berishga to'g'ri keladi.

Ta'lim-tarbiya, ilmiy-tadqiqot ishlarining miqdoriy ko'rsatqichlari qanchalik yuqori bo'lmasin, ular Markazga qaramligi sababli o'zlarining ish faoliyatida Kompartiyaning mafkuraviy tazyiqidan chetga chiqolmadilar. O'quv dasturlari, ayniqsa ijtimoiy fanlar haddan tashqari siyosatlashtirildi. O'tmishda dunyoga mashhur bo'lgan, jahon fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan Vatanimiz mafkurachilari esga olinmadi, millatimizning boy tarixi va adabiyoti o'qitilmadi. Chunki, maktab, oliy ta'lim tizimining milliy siyosatining tantanasini ko'rsatishdan boshqa hech narsa emas edi. Bu tizim respublikaning Markazga qaramligini kuchaytirdi.

Markazning baynalminalchilik siyosati mamlakatda istiqomat qiluvchi 120 dan ortiq millatlar va elatlar yagona sovet xalqini shakllantirish siyosatini ro'yobga chiqarish uchun jadal ishlarni olib bordi. Shu maqsadda rus tilini butun hayotga kiritish faollashdi. 1969 yildan boshlab O'zbekistonning barcha bolalar bog'chalarida rus tilini o'rgatish boshlandiki, butun harakat yagona baynalminal til yaratishga qaratildi. Bunday siyosatning oqibatida o'zbek tilining jamiyatdagi o'rni, milliy, diniy qadriyatlar yo'qola bordi.

Saxna san'atida opera va balet sohasida dastlabki yutuqlarga erishildi. Kino san'ati qaror topdi. Aynan shu davrda adabiyot va san'atda sotsialistik realizmi deb atalmish yo'nalish hukmron bo'la boshladi va respublikada madaniy haet komunistik mafkuraga bo'ysundirildi.

Urushdan keyingi 50-60 yillarda respublika ijodiy ziyolilarining yangi avlodи shakllandи. Shaxsga sig'inishning fosh etilishi bilan yuzaga kelgan iliqlik shamoli bilan badiiy adabietda ko'pgina salmoqli asarlar yaratildi, san'atda bir qancha yangi o'zbek teatr va kontsert san'atining dongini taratgan jamoalar tashqil etildi. Jamiyatda inqirozli holatlarning kuchayishi bilan madaniy haetdagi ziddiyatlar ham keskinlashdi. Chirib boraetgan sotsializm g'oyalarisiz tarixiy, badiiy asarlar yorug'lik ko'rmaydigan bo'ldi. Faqat 80-yillar 2 yarmidan yangicha fikrlash davrida sotsializm g'oyalari va amalieting jamiyat hayotining barcha sohalaridagi mudhish oqibatlarini fosh qiladigan asarlar yaratildi.

40-yillar oxirlarida fan va madaniyat xodimlarini qatag'on qilishlar davom etdi. VKP(b) MQning 1946 yil "**Zvezda**" va "**Leningrad**" jurnallari haqidagi qarorlari qatag'onlar yangi to'lqinining g'oyaviy asosi bo'lib xizmat qildi. Shu paytdan boshlab adabiyot va san'atda ijodiy demokratik rivojlanish o'zoq yillar davomida sun'iy ta'kib qilindi, joylarda hurfikrlilik siquvga olindi.

Markazning ko'rsatmalariga asoslanib, respublikianing partiya organlari ijodiy ziyolilarga qarshi kurash olib bordilar. Ularning asarlaridagi milliy g'oyalar, ularni ayblash uchun foydalanildi. Yozuvchi va shoirlarning asarlarida o'rta asr va inqilobgacha bo'lgan davrdagi xalq tarixini va madaniyatini badiiy tasvirlash - o'tmishni ko'msash, ideallashtirish deb ayblandi va ularga "**millatchi**" degan

tamg'alar yopishtirildi. Shu kabi Oybek, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Shayxzoda va boshqa o'zbek yozuvchilari qoralandi.

1951 yil avgustda respublika matubotida qator "shoir va ezuvchilarning ijodida mafkuraviy og'ishlar" mavzusida maqola chop etildi. Unda **Turob To'la, Kamtar Otaboev, Mirtemir, A.Bobojonov, Sobir Abdulla, Xabibiy** kabi ijodkorlar millatchilikda va panturkchilikda ayblanib, tanqid qilindilar. Shuningdek, Oybek, X.Zarifov, X.Equbov, I.Sultonov va boshqalar "**O'zbek sovet adabieti vazifalaridan chetda turishda va jiddiy g'oyaviy xatoliklar**"ga yo'l qo'yganlikda ayblandilar.

1951 yilda Maqsud Shayxzoda, Shukrullo Yusupov, Saloxiy va boshqa bir qator ijodkorlar "**antisovet millatichilik faoliyati**"da ayblanib, qamoqqa olindilar va 25 yillik qamoq jazosiga hukm qilindilar. Shu yillari jamiyatshunos olimlardan bir guruhi chunonchi faylasuf V.Zoxidov, tarixchi A.Boboxo'jaev, iqtisodchi A.Aminovlar panturkizmni tashviqot qilishda ayblanib, ta'kib qilindi.

Qatag'on qilingan san'at, fan va madaniyat arboblari gurillagan mustabid tuzum davrida ham huquqsizlik qurbanbi bo'ldilar. Adolat bir qadar qaror topib, shaxsga sig'inish va uning oqibatlarini tuzatish uchun olib borilgan kurashlardan keyin asossiz qatag'on qilingan madaniyat va fan arboblari to'liq oqlandilar.

O'zbekistonga xalqaro miqyoslarda ham markaziy hokimiyat organlari tomonidan xom ashe bazasi roli berilar edi. Respublika asosan qishloq xo'jalik mahsulotlari - paxta tolasi, ipak, lint, qorakul terini chetga chiqarib keldi. Xalqaro aloqalar asosan sotsialistik lagerga kirgan mamlakatlar bilan olib borilardi. Bulardan tashqari O'zbekiston ayrim rivojlanaetgan mamlakatlarga qishloq xo'jalik mashinalari, qimyoviy uskunalar, kabel, nasoslar va boshqa mahsulotlarni chiqarardi. Shunday bo'lsada, O'zbekiston chetdan keltirilgan mollarning yirik iste'molchisi bo'lib kolaverdi.

Toshkent oliygohlarida ajnabiy mamlakatlardan kelgan talabalar o'qir edi. Mutaxassis kadrlar bilan almashish birmuncha yo'lga qo'yildi. San'at sohasidagi hamkorlik Xalqaro madaniy aloqalarda ko'zga ko'rinarli o'rinni egalladi. Misol uchun Toshkent kinofestivalini keltirish mumkin.

2.2.3- Paxta yakkahokimligining kuchayishi va uning salbiy oqibatlari.

Qatag'onlikning navbatdagi yangi bosqichi 80-yillarga to'g'ri keldi. Bu qatag'onlik sovetlar hukumatining yana bir navbatdagi nayrangi bo'lib, “*O'zbek ishi*”, “*paxta ishi*”, “*O'zbek mafiyasi*”, “*qo'shib yozish*” kabi izohli lug'atimizga mustamlakachilar tomonidan kiritilgan yangi so'zlar bilan bog'liq. “*O'zbek ishi, - deb yozadi O'tkir Hoshimov - 30- va 50-yillardagi qatag'onlarning mantiqiy davomidir. Sovet siyosati har 10-15-yilda kalla olib turmasa ko'ngli joyiga tushmagan. To'g'ri, o'sha paytlar O'zbekistonda qo'shib yozishlar, poraxo'rliklar bo'lgan. Buni inkor qilmaymiz. Ammo bunday harakatlar butun sobiq Ittifoqda avj olgan edi. Unday bo'lsa, nima uchun markaz ayni O'zbekistonni tanladi, degan savol tug'iladi. Bu ning sababi oddiy. Biz anchagina loqaydmiz, darrov qovusha qolmaymiz*”⁷.

Ha, juda adolatli va to'g'ri aytilgan gaplar. Aslida “O'zbek ishi” degani nima o'zi va qachon paydo bo'ldi. Bu “*ish*” aslida 80-yillarda O'zbekiston Davlat Xavfsizlik Qo'mitasi (DXQ)ning raisi bo'lib ishlagan Melkumov (millati arman) bilan O'zbekiston KP MQning birinchi kotibi Sh.Rashidov o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklardan boshlangan. O'sha kezlarda Buxoro viloyati BXSS boshlig'i Muzaffarov va Buxoro shahar savdo idorasining direktori Qudratovlarning poraxo'rligiga taalluqli ma'lumotlar DXQda bo'lgan. Bu shaxslar Buxoro viloyati firqa qo'mitasining birinchi kotibi A.Karimov himoyasida bo'lgan va unga “*oshirib*” turishgan. A.Karimov esa o'z navbatida Sh.Rashidov bilan yaqin aloqada bo'lgan. Shu bois Melkumov va uning gumashtalari o'z oldilariga Muzaffarov va Qudratovni fosh qilish orqali A.Karimovga chiqish va so'ngra u orqali Sh.Rashidovni “*nishonga*” olishni mo'ljallab harakat qilganlar. 1983-yilda Buxoroda ilgaridan o'ylab rejalashtirilgan va amalga oshirilgan “*operatsiya*” tufayli Muzaffarov va Qudratovlar qamoqqa olindilar. Ular xalqqa ma'lum bo'lgan birinchi o'zbek millionerlari bo'lib chiqdi. Bu ish darhol Moskvaga oshirildi va markazda ana shu tariqa “O'zbek ishi” paydo bo'ldi.

⁷ Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1996 йил, 19 апрель

SSSR Prokuraturasining tergov qismi boshlig'i G.P.Karakozov darhol tergov guruhi tuzib, unga boshqa bir armani - T.X.Gdlyanni rahbar qilib tayinladi. Tergovchilar guruhiga kiritilgan vakillarining deyarli hammasi Gdlyan bilan yaqin va hamtovoq bo'lgan shaxslar edi.

“**Paxta ishi**”, “**qo'shib yozishlar**” masalasi ham aslida 1983-yilda boshlangan. O'zKompartiya MQning XVI plenumi va unda Inomjon Usmonxo'jaevning Markazdan O'zbekistonga kadrlar bilan “**yordam berish**”ni so'rab qilgan murojaatidan so'ng bu ish avj oldi. O'zbekistonga yuzlab, minglab kadrlar yuborildi. Bu “**kadrlar desanti**” tarkibida o'zbek xalqi, turkiylar va muslimonlarga qalbida nafrat va shovinizm g'oyalari burqsib turgan jallod-fashistlar ko'p edi. Bular Anishev, Ogaryuk, Klepikov, Satin, Nesterenko, Buturlin, O.Gaydanov, E.Didorenko, Lyubimov, Ivanov, Galkin, Kartashyan va boshqalardir. “Paxta ishi” bo'yicha juda ko'p guruqlar tashkil qilindi. “*Barcha Konstitutsiyaga ko'ra O'zbekiston suveren davlat sanalsa ham uning prokurori, respublika rahbariyati bilan maslahatlashilmagan holda SSSR Bosh prokurori tomonidan tayinlanardi.*”

Qisqa muddat ichida O'zbekiston SSR prokuratasining eng yuqori, eng muhim lavozimlaridan tortib, oblast, rayon prokurorlarigacha Markazdan doimiy ishslashga yuborilgan vakillar bilan almashtirildi. O'zbekistonga tashlangan bu “sotsialistik desant” ning soni esa yuzdan ortiq edi⁸.

1984-yilda O'zbekiston SSR prokurori, uning muovinlaridan uchtasi, eng katta boshqarmalarning boshliqlari lavozimlariga Markazdan kelgan odamlar qo'yildi. Bu bilan cheklanilmasdan, asta-sekin oblast darajasidagi prokurorlar - Buxoro oblasti prokurori (Matyushov G.N) Samarqand oblasti prokurori (Eremenko V.I.), Xorazm oblasti prokurori (Titarenko A.D.), Navoiy oblasti prokurori (Suxarev A.P.) Surxandaryo oblasti prokurori (Jetkov V.M), Qoraqalpog'iston ASSR prokurori (Donsov V.V.) va Toshkent shahar prokurori (Fillipenkov G.P) ham Moskva tomonidan yuborildi. Keyingi bosqichda esa rayon prokurorlari lavozimi ham «mehmonlar» uchun bo'shatildi.⁹

⁸ Шамсутдинов Р ва б. Ватан тарихи(Учинчи китоб). Т.: Шарқ, 2010.-496 6.

⁹ Азизхўжаев А. Чин ўзбек иши. Т.: Академия, 2003

Ana shunday «*mehmonlar*» Respublika Ichki ishlariga ham joylashtiriladi. O'sha paytdagi Ichki ishlar vazirining o'rribosari general G'afur Rahimovnnig dalillariga ko'ra, vazirlik tarkibidagi 27 boshqarma va bo'limdan bor-yo'g'i ikkitasinigina o'zbek millatiga mansub kishilar boshqargan. U ham bo'lsa, xo'jalik va tibbiyot boshqarmalari edi.¹⁰

Mahalliy xalqning «*xarakter va psixologiyasi*»ni yaxshi bilgan jallodlar bu guruhlarga tub erlik prokuror va tergovchilarni bosh qilib, ularga «*yaxshi konsultatsiya*»lar berdilar va shu tariqa o'z sopini o'zidan chiqardilar. Yuqori saviyada «maslahat va konsultatsiya» olgan guruh a'zolari amaliy ishga tushib ketdilar. Ular 70-80-yillarda mamlakatda keng tus olgan qo'shib yozishlar bo'yicha jinoyatchilarni aniqlab berishlari kerak edi. Haqiqatdan ham shu yillarda paxta, chorva va boshqa sohalar bo'yicha qo'shib yozishlar davlat rejalarini sun'iy ravishda bajarish usuli bo'libgina qolmay, million so'mlab davlat va jamoat mablag'larini suiste'mol qilish va talon-taroj etish bilan bog'liq bo'lib, hamma erda poraxo'rlik avjiga mingan edi. Bunday qo'shib yozishlar poraxo'rliklarning asosiy ilhomchisi va tashkilotchisi Moskovning o'zi bo'lib, respublika, viloyat, tuman rahbarlari, davlat xo'jaligi direktorlari, jamoa xo'jaligi raislari, paxta tayyorlash korxonalari va paxta tozalash zavodlari rahbarlari bu ish bilan bog'liq edilar. Ular asosli ravishda jinoiy javobgarlikka tortildilar va sudlandilar. Shu bilan bir qatorda, qo'shib yozishlarga bevosita aloqador bo'limgan, bu ishga ongsiz suratda yoki tasodifan o'ralashib qolgan, rahbarlarning ta'siri va tazyiqi ostida qo'shib yozishlarga, noiloj qo'shilib qolgan, undan hech qanday moddiy manfaatdor bo'limgan yuzlab va minglab gunohsiz kishilar ham jabr ko'rib, aziyat chekdilar. «O'zbeklar ishi», «Paxta ishi» bo'yicha qancha odamning qamoqqa olinganligi to'g'risida turlicha ma'lumotlar bor. Ba'zi manbalarda 22 ming, boshqasida 30 ming, hatto 48 ming¹¹ odam hibsga olinganligi ko'rsatiladi. «O'zbeklar ishi» ayni quturgan va avjiga chiqqan paytda O'zKP MQning birinchi kotibi I.Usmonxo'jaev yozuvchilar bilan uchrashuvda respublikada qo'shib yozish va poraxo'rlik avj olib ketgani tufayli yigirma uch ming

¹⁰ Ўша асар. 48 бет

¹¹ Совет Ўзбекистони. 1987 йил. 16 февраль

kishi qamoqqa olinganini aytgan edi. Shu damlarda Kompartiya fidoyisi o'zining ham taqdiri yaqin kelajakda ne ahvollarga tushajagini albatta tasavvur ham qila olmagan, albatta. Chunki.Usmonxo'jaev Komfirqaning so'zsiz itoatkor qo'g'irchoq rahbari sifatida O'zKP MQning IV plenumida so'zlab «1986-yilda rahbar xodimlardan salkam 750 kishi, shu jumladan 8 obkom sekretari, shahar, rayon partiya komitetlarining 10 sekretari, shahar rayon partiya komitetlarining 10 sekretari, shahar va rayon ijroiya komitetlarining 40 raisi, ministrliklar va idoralarning 18 rahbari»ni almashtirganligi bilan ko'krak kergan edi. Xullas necha ming odam qamoqqa olinganligidan qat'i nazar o'zbek xalqi boshiga 80-yillarda ommaviy kulfat tushgan edi. Gdlyan va Ivanovlar guruhi O'zbekistonda bilgan va bilmagan barcha noma'qulchiliklarni qildilar. 70-80-yillarda O'zbekistonda Kompartiya va sovetlar hukumatining, I.Usmonxo'jaev, Xudoyberdiev, Aytmurotov, Salimov, R.Abdullaeva, Tursunov, Musaxonov, Yahyoev, Norov, Sattorov, B.Rahimov, A.Karimov, X.Norbo'taev singari rahbarlari qamoqxonalarda mislsiz qiyonoq va azoblarga solindilar.

Insoniylik qiyofasini yo'qotgan Gdlyan boshliq vahshiylar guruhi mahbuslarni so'roq qilish davomida hatto fashistlar ham etti uxlab tushiga kirmagan dahshatli, eng qaltis va ta'sirli usullarni ishga solganlar: «Hozir bolalarin ni qamoqqa tiqamiz, retsedevistlar xotiningni zo'rlaydi, qizingni badnom qiladi, sen esa eshikdan tomosha qilib turasan» kabi. Yaxshisi mahbuslarning ba'zi bir deganlariga e'tibor qarataylik. Sobiq militsiya general-mayori (u Nijniy Tagil qamoqxonasida saqlangan) Xushvaqt Norbo'taevning arzonmasidan: “*Hech natija chiqmaganidan keyin meni 3-hibxonaga - o'ta xavfli jinoyatchi Sayfulin Shavkat, muttaham G'afurov Oqil (laqabi Doktor), qartaboz Igorlar ichiga qo'shib qo'yishdi. Odamiy qiyofani yo'qotgan bu unsurlar odam bolasi bardosh bera olmaydigan azob-uqubatli usullarni o'ylab topisharadi, bu haqorat, kaltaklashlar, hatto fashistlar o'ylab topmagan odamga o'z axlatini edirish, erkaklik nomusiga zo'rlik qilish, og'zingdagi ovqatni tortib olish. Kimga nola qilasan, kimdan yordam so'raysan, xudodan boshqa. Bu aytganlarimga, ehtimol, ishonishmas, lekin baribir hammasi rost, hammasi shunday bo'lgan, 90 yoshga kirgan otam bolalarim haqqi-hurmati, hammasi rost.*”

Yana bir kuni Gdlyan ovi baroridan kelgan yirtqichdek xursand bo'lib, ikki qo'lini ishqalar ekan: «Bilishimcha qizing juda ketvorgan emish, Qarshilik bezorilarga «hadya» etsam mendan hursand bo'lishar-a, nima deysan» dedi. Bunday tahqirlarga qanday ota bardosh bera oladi-ya!». Birgina Inomjon Buzrukovichning ishi yuzasidan uning qarindosh-urug'laridan 23 kishi qamoqqa olingan. U bunday deydi: «Urishganda mayliydi. Lekin, qarindosh-urug', xotin, bola-chaqaga azob berishsa qiyin bo'lar ekan»¹².

Inomjon Usmonxo'jaev sovetlar sudlov organlari ishining naqadar chirkin, adolatsiz va dahshatli ekanligini fosh etib, quyidagilarni yozadi: “*Tergov ham, sud ham nohaqlikdan iborat bo'ldi. Odam qiyofasidagi vahshiy tergovchilar tirik jonni emas, balki temirni ham eritishga va singdirishga qodir ekanliklarini o'z boshimdan kechirdim. Men mana shunda birinchi bor sovet tuzumi naqadar aldoqchi ekanligini, uning tergov organlari o'z muddaosi uchun har qanday vahshiylik ham qilishi mumkinligini his qildim. His qildim-u, butun umr mana shu tuzum, mana shu jamiyat, mana shu partiya uchun e'tiqod qo'yganimga, bor hayotimni shu yo'lda baxshida qilganimga achinib o'kinib-o'kinib yig'ladim. Kaltakdan bir joyingiz sinsa, buning azobi o'tib ketadi. Lekin bir umrlik e'tiqodingiz sinsa, bunga chidab bo'lmas ekan. Ular bilan uchrashib suhbatedosh bo'lmas odam buni tasavvur eta olmaydi*”.

“**O'zbeklar ishi**” kampaniyasi davrida O'zbekistonda xalqni talab olib ketilgan summa miqdori to'g'risida ham turlicha raqamlar tilga olingan. Jumladan Gdlyanning o'zi O'zbekistondan 140 million so'm topdik, deb maqtangan. Keyinchalik «100» raqami noma'lum sabablarga ko'ra 40 millionga tushirilgan. Biroq bu pullar sinchiklab tekshirilganda xalqdan o'marilgan pul atigi 15 million so'm chiqqan, xolos. Qolgan pullar O'zbekistonda «*samarali*» ishlaganlarning o'pqonlariga tushib ketgan bo'lsa ne ajab? 80-yillarda «desantchilar guruhi» O'zbekistonda «paxta ishi», «o'zbeklar ishi» bahonasida ijtimoiy hayotning deyarlik barcha sohalariga o'z burunlarini tiqib «poklik» va «adolat» o'rnatmoqchi bo'ldilar. Hatto ular O'zbekiston fani rivojiga ham «munosib hissa» qo'shganlar. Akademik Vosil Kobulov ma'lumotlariga qaraganda O'zbekiston birinchi rahbarlarining yo'l qo'yib

¹² Фан ва турмуш. 1990 йил. 7-сон. 25-бет.

berganligidan foydalangan «desantchilar» respublika Markaziy Qo'mitasida «pinhona kabinet» tuzib olgan edilar va shu kabinet tavsiyasi bilan FAning «Kibernetika birlashmasi»ni 80-yillarda tekshiraverib ilma-teshik qilib yubordilar. Tekshirish uchun esa birlashmada «iqtisodiy samara», «qoloq loyiha» va «emakxona» (kormushka) kabi masalalar asos qilib olindi. Birinchi va ikkinchi masalalardan ish chiqmadi. «Emakxona»ning asosi ham topildi. Bu tekshirish boshlanganga qadar «Kibernetika birlashmasi»da 628 kishining doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilganliklari va ular aksariyatining erli millat vakillari bo'lganida edi. Shovinist va alchoq Anishev bilan Ogaryok akademik V.Kobulovning bunday «*shakkokligi*» uchun uning «*ko'zini ochib*» qo'ymoqchi bo'lganlar.

1983-yilning sentyabridan O'zbekistonda ish boshlagan va had-hududsiz vakolat bilan SSSR Bosh Prokurori nomidan kelgan Gdlyan va Ivanovlar o'zbek xalqi farzandlarini, milliy kadrlarimizni qirib tashlashni asosiy maqsad qilib olishgan. Xo'sh, butun bir xalqning taqdirini belgilashga ularga kim bunchalik huquq berdi. Axir, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi «mustaqil suveren» respublikami o'zi? Ha, hamma gap, balo va fojia yolg'onchi Konstitutsiyada O'zbekistonning mustaqil, suveren respublika, amalda esa u ilgarigidek Rossiyaning hech qanday huquqqa ega bo'limgan mustamlaka o'liasi bo'lib qolayotganligida edi. Bu nohaq berilgan qurbanlar, ona xalqimizning gunohsiz farzandlari boshlari uzra o'ynagan azob va jahannam gurzilari uchun tarix oldida, Ollohu Karim oldida kimlardir ertadir-kechdir javob berishlari kerak-ku. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov: «*O'zbekiston jamoatchiligi o'zining eng yaqin tarixidagi Gorbachyov, Ligachyov komandasini xalqni jilovda tutib turish, uning o'sib kelayotgan milliy va siyosiy ongini bo'g'ish niyatida «paxta ishi», «o'zbeklar ishi» deb atalmish tuhmatlarni to'qib chiqargan, biz o'zbeklarga turli-tuman sharmandali tamg'alar yopishtirilgan fojiali sahifalarini hech qachon unutmaydi*¹», degan edi. Xullas, ona tariximiz o'tmishining sovetlar sultanati davri, xususan 80-yillardagi qatag'onlik yillari dardli, alam va motamsaro voqealarga to'la xalqimizning millat sifatida qaddi bukilgan, xo'rangan va oyoqosti qilingan davridir. Kelajakdan umidi bo'lgan inson va millat sifatida yashayman

degan avlodlarimiz tariximizning yaqin o'tmishdagи achchiq saboqlaridan hayotiy xulosalar chiqarmoqlari ham qarz ham farzdir.

2.2.4-. «Qayta qurish» siyosati va O’zbekistonning mustaqillik tomon yo’l tutishi.

80-yillarning o’rtalaridan boshlangan «*qayta qurish*» madaniyat sohasini ham qamrab oldi. Mamlakat siyosiy rahbariyatining madaniyat sohasini «*qayta qurish*»i aslida ma’naviy jahbada ma’muriy-buyruqbozlik tizimi, rivojlanishning ekstensiv yo’li yaroqsiz bo’lib qolganligidan dalolat edi. Haqiqatdan ham shunday edi. Chunki uzoq yillar davomida mustabid tuzumning milliy respublikalar madaniyatini inkor etib, butun mamlakatda yagona «sotsialistik madaniyat»ni shakllantirish borasida olib borgan g’ayriilmiy siyosati madaniyatda ham ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda bo’lganidek tushkunlik, turg’unlik mexanizmini yuzaga keltirdi. Bunday mexanizm 80-yillar o’rtalariga kelib to’liq pishib etilgan bo’lib, uni bartaraf qilish kerak edi. Shu bois ta’lim, fan, madaniyat va san’at sohalarida ham «*qayta qurish*», ya’ni, mamlakat siyosiy rahbariyatining ta’biri bilan aytganda, uning «*rivojini sun’iy ravishda jadallashtirish*» lozim edi.

Lekin, shuni alohida ta’kidlash lozimki, madaniyat rivoji, ma’naviy jarayonlar jamiyatning o’ziga xos ichki, tabiiy qonunlari asosida ro’y beradi, uni sun’iy jadallashtirish uchun ko’r-ko’rona aralashuv salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin.

Yana shuni ham tan olish kerakki, qayta qurish O’zbekistonda milliy madaniyatni, ayniqsa, milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish, xalqning o’zligini anglash jarayonini tezlashtirish yo’lida ma’lum qadam bo’ldi. Qayta qurish munosabati bilan madaniyatda milliylik tiklana boshladi, madaniy merosga munosabat o’zgardi, ijtimoiy hayotda milliylik va baynalmilallik nisbatida, qisman bo’lsadaadolat tiklanishi sodir bo’ldi. Biroq, qayta qurish o’zbek xalqi madaniyatini rivojlantirishni, uni haqiqiy xalq ma’naviyatiga aylantirishni bosh maqsad qilib qo’ymagandi.

Madaniyatdagi «*qayta qurish*» hukmron mafkuraning o’z siyosiy barqarorligini tiklash yo’lidagi navbatdagi urinishi edi, xolos. Uning maqsadi madaniyatdagi shakllanib bo’lgan sekin-lashtirish mexanizmining «*ko’zga tashlanib*» turgan ayrim «*qusurlarini*» engil ta’mirlashdan boshqa narsa emasdi.

Bu narsa, ayniqsa, xalq ta’limi va oliy ta’lim tizimida yaqqol ko’zga tashlanib qoldi.

1985—1990 yillar xalq ta’limi tizimidagi ayrim siljishlar ma’muriy-buyruqbozlik tizimining zo’r berib qilgan harakati bilan tavsiflanadi. Lekin bu davrda ta’lim va tarbiya sohasida ziddiyatli holatlar yanada keskinlashdi. Maktab, o’rta maxsus va oliy ta’lim tizimi moddiy jihatdan etarli darajada ta’minlanmadi. Sovet ta’lim tizimi jahon andozasidan ajralib qoldi, jahonning ilg’or tajribalaridan bahramand bo’lmadi. Shuningdek, o’quvchi va talabalarning ijtimoiy faolligi ortib borgan sari ta’lim tizimining kontseptual tarzda cheklanishi xalq maorifidagi eng katta muammoga aylandi. Ta’lim, tarbiya sohasi kadrlarini sifat jihatdan qayta ko’rib chiqolmadi, mafkuraviy cheklashlar tobora kuchayib bordi.

80-yillarning o’rtalaridan boshlangan xalq maorifidagi islohotlar juz’iy ahamiyatga ega bo’lib, mavjud muammoni hal qilishdan ko’ra uni keng xalq ko’z o’ngidan yashirish, «*bo’yab-bejab*» ko’rsatish ma’qulroq ko’rindi. Aslida, islohotdan ko’zlangan maqsad «*soviet ta’limi tizimi*»ni xalqaro darajaga ko’tarish, mutaxassis va o’quvchilar bilim saviyasi sifatini oshirish, ta’limni demokratlashtirish va insonparvarlashtirishdan iborat edi.

Ammo ko’zlangan maqsadga erishib bo’lmadi. Buning sababi islohotning o’lib borayotgan kommunistik «ta’limot»ga, mustabid jamiyatning tafakkuriga asoslanganligi bo’ldi. Bular dan tashqari, islohotni quruq va’dalarga asoslanib o’tkazib bo’lmasdi, u kuchli moddiy bazaga ega bo’lishi kerak edi. Lekin u moddiy jihatdan ta’minlanmadi, shuning uchun ham u kutilgan natija bermadi.

Masalan, xalq ta’limi sohasida belgilangan islohotlarni amalga oshirish maqsadida O’zbekiston SSR Maorif vazirligi respublikadagi tabiiy o’sishni e’tiborga olgan holda yuqori saviyadagi ta’lim tizimini yaratish maqsadida 1985—1990 yillarga mo’ljallab tuzilgan istiqbolli rejada 3693 ming o’quvchiga mo’ljallangan yangi maktablar qurishni ko’zda tutgan edi. Lekin Markaz islohotni ta’minlash uchun etarli mablag’ga ega bo’lmaganligi sababli O’zbekistonda yangi maktablar qurilishini 920 ming o’ringa tushirdi¹³. Holbuki, bu paytda respublika

¹³ ЎзР Халқ таълими вазирлиги жорий архиви, 217-йифма жилд, 4-варак.

qishloqlaridagi mavjud maktablarning 20%i haligacha moslashtirilmagan binolarda faoliyat ko'rsatayotgan edi.¹⁴

I.A.Karimov boshliq siyosiy rahbariyat xalq xo'jaligini qayta qurish doirasida mutaxassislar tayyorlash tizimiga ham bir qator o'zgartirishlar kiritdi. Ba'zi bir mutaxassisliklarni tayyorlash qisqartirildi, yangi sohalar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi va ana shu yo'nalishda oliy o'quv yurt-larining tarkibi qayta ko'rib chiqildi (yangi institutlar va universitetlar ochildi, bir qator institutlarning yo'nalishi o'zgartirildi).

1985-1990 yillarda O'zbekiston fanida ham bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi, oliy o'quv yurtlari tizimidagi ilmiy-tadqiqot muassasalari, ilmiy laboratoriylar o'z faoliyatlarini «qayta qurish» talablari asosida takomillashtirishga harakat qildilar. Ta'kidlash lozimki, bu davrda O'zbekiston fani o'zining uyg'onish davrini boshidan kechirayotgan, tabiiy va ijtimoiy fanlar bo'yicha jiddiy izlanishlarga qo'l urilayotgan edi. Xususan, 1987 yilda Toshkent viloyatining Parkent tumanida nihoyatda noyob ilmiy-eksperimental majmua — bizerkal optika — energetika qurilmasi foydalanishga topshirildi. 1991 yilda FA tarkibida Suv muammolari instituti tashkil etildi. Fan bilan ishlab chiqarishni yaqinlashtirish maqsadida ba'zi institutlar qoshida ishlab chiqarish birlashmalari, markazlari tashkil qilindi.

«Qayta qurish» yillarida o'zbek ziyorolarining sa'y-harakatlari bilan milliy-madaniy merosni tiklash, tarixiy-madaniy yodgorliklarni himoya qilish va saqlash, O'zbekistondan olib chiqib ketilgan tarixiy-madaniy yodgorliklarni qaytarish muhim masalalardan biriga aylandi. Shu ma'noda, 80-yillarning ikkinchi yarmidan O'zbekistonda «*Meros*» dasturi amalga oshirila boshladi. Bu harakat respublika bo'ylab keng yoyildi. Jumladan, O'zbekiston tarix va madaniyat yodgorliklarini saqlash Toshkent viloyati kengashi huzurida tuzilgan yangi tashkilot — «Bobur jamiyati», 1989 yilda birinchi jamoat ekspeditsiyasi sifatida tashkil etilgan «Bobur yo'li» ilmiy-ma'rifiy uyushmasi¹⁵, ayni shu paytlarda Farg'onada faoliyat

¹⁴ Ўша жоидат, 124-йифма жилд, 1—2-вараклар.

¹⁵ «Тошкент ҳакиқати». 1990, 19 декабрь.

ko'rsatgan «Farg'ona madaniyatini tiklash», Toshkent shahridagi 254-o'rta maktabda vujudga kelgan «Madaniy merosga ixlos» markazlari xalqimizda, ayniqsa yoshlarda milliy g'urur, faxr-iftixor, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarkib toptirishda muhim rol o'ynadi.¹⁶ «Qayta qurish» yillarida bunday markaz, tashkilot va uyushmalar O'zbekistonning barcha hududlarida tashkil etilgan edi.

«Qayta qurish» yillarida tarixiy va madaniy yodgorliklarni sakdash, muhofaza etish, ayniqsa, muzeylar faoliyatini yaxshilash muammosi eng muhim masalalardan biri sifatida kun tartibida turdi. Ma'lumki, muzeylar xalq milliy o'zligini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, «qayta qurish» yillarida ham ilgarigi davrda bo'lgani kabi respublika muzeylari asosiy e'tiborni inqilobiy-siyosiy, «sotsializmning afzalliklarini» targ'ib qilishga qaratdi. Agar, 1985 yilda O'zbekistonda 46 muzey faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1989 yilga kelib ular soni 58 taga etdi. Lekin, yuqorida qayd etgani-mizdek, ular asosan hali hukmron bo'lib turgan kommunistik mafkuraning «targ'ibotchilar» sifatida faoliyat ko'rsatar edi.

Qayta qurish davri tarixiy mavzuda ijod etuvchi yozuvchilar uchun qanchalik keng imkoniyat yaratganiga qaramay, bir tomonidan, Oybek, M.Osim, M.Shayxzoda singari o'zbek xalqi tarixini puxta bilgan yozuvchilarining bu davrga etib kelmaganligi, ikkinchi tomonidan, P.Qodirov va O.Yoqubov singari yozuvchilarining boshqa yumushlar bilan band bo'lib bu mavzuda asar yaratmaganliklari sezildi. Yozuvchilar, garchand qisqa vaqt davom etgan bo'lsa-da, sovet jamiyati hayotida burilish yasagan qayta qurish davri imkoniyatlaridan shu ma'noda etarli foydalana olmadilar.

Qayta qurish yillarida berilgan eng katta imkoniyat sovet jamiyati hayotida yuz bergan ana shunday voqealarga hushyor nazar tashlash, respublika tarixining soxtalashtirilgan va noto'g'ri tasvir etilib kelingan sahifalarini qayta baholash bo'ldi. Yozuvchilarining aksar qismi diqqat-e'tiborlarini xuddi shu narsaga qaratdilar.

50-yillarning boshlaridagi qatag'on qurbanlaridan biri Shukrullo «Kafansiz ko'milganlar» xotira-romanini yozib, unda sovet tuzumining inson haq-huquqlarini

¹⁶ «Ёш ленинчи». 1991, 27 апрел.

poymol etish evaziga «yangi tarixiy birlik» — sovet xalqini yaratishga qaratilgan aksilinsoniy maqsad-mohiyatini ochib tashladi. Shu yillarda maydonga kelgan qator roman, qissa va hikoyalarda sovet jamiyatining qonli tarixi, siyosiy tuzum tomonidan majaqlanib tashlangan raqdirlar haqqoniy tasvirini topdi. Yozuvchilar etmish yillik tarixiy jarayonni yangi tafakkur asosida tasvir va talqin etishga faol kirishdilar. To'g'ri, shu yillarda sovet jamiyatining yaqin tarixini bir tomonlama tasvirlagan «Jimjitlik» (Said Ahmad asari), «Chorraha» (Asqad Muxtor asari) singari romanlar ham paydo bo'ldi. Ammo, aksar asarlarning mualliflari kechagi tarixning murakkab ichki ziddiyatlarini to'g'ri ko'ra va aks ettira oldilar. Shu ma'noda, Murod Muhammad Do'stning «Lolazor», O'tkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» romanlari shu davrning adabiy hayotida muhim voqeа bo'ldi.

Umuman, qayta qurish arafasida adabiyotimizga kirib kela boshlagan oddiy inson obrazi bu davrda yangi mazmun bilan boyidi. Shu narsa muhimki, agar adabiyotimiz tarixining oldingi davrlarida yozuvchilar hayotiy jarayonning etakchi tamoyillarini aks ettirishga biror mansabdor shaxsni qahramon sifatida jalg etishni lozim, deb bilgan bo'lsalar, bu davrda xuddi shunday badiiy vazifani bajarishda oddiy kishining murakkab taqdiridan mahorat bilan foydalandilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Omon Muxtorning «Ming bir qiyofa» romani ham e'tiborga sazovordir.

Ma'lumki, Sovet davlati o'z tarixining dastlabki davridan boshlab uzlusiz ravishda milliy kadrlar, olimlar, adabiyot va san'at arboblari safini «tozalab kelgan». Ana shunday «tozalash» kampaniyalari natijasida Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Elbek, Usmon Nosir singari qatag'on qurbanlarigina emas, balki o'z ajallari bilan vafot etgan M.Behbudiy, A.Avlonyi, A.Alaviy singari o'nlab yozuvchilar ham «xalq dushmani» deb e'lon qilindi va ular adabiyotimiz tarixidan sun'iy ravishda chiqarib tashlandi. Kommunistik partianing XX s'ezdidan keyin begunoh qamalgan qator yozuvchilar oqlanganiga qaramay, Cho'lpon va Fitrat singari yozuvchilarning adabiy xizmatlarini tiklash oson bo'lmasdi. Sovet tuzumining mahalliy «posbonlari» ularning ijodkor sifatida oqlanishi va asarlarining xalqqa qaytarilishiga tish-tirkoklari bilan qarshilik ko'rsatdilar.

«Qayta qurish» siyosati madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatiga ham ta'sir qilmay qo'ymadidi. Bu, ayniqsa madaniy-ma'rifiy muassasalarining moddiy-texnika bazasi masalasiga, ayniqsa tallukli edi. Madaniyat sohasiga mablag' sarflashning «qoldiq» printsipi tufayli 1985—1990 yillarda madaniyat maskanlari sonining kamayishi kuzatldi. Masalan, ko'rsatilgan davrda respublikada klublar soni 55 taga, kutubxonalar soni esa 93 taga kamaydi¹⁷ Binobarin, O'zbekistonda madaniy-ma'rifiy maqsadlar uchun aholi jon boshiga 1989 yilda 3,6 so'm pul ajratildi, xolos.¹⁸ Bu raqam ittifoq respublikalari orasida eng past ko'rsatkich edi. Yuqorida keltirilgan raqamlar mazkur masalaning faqat tashkiliy jihatlari edi. Madaniy-ma'rifiy muassasalar hammadan ko'proq mazmun jihatdan oqsayotgan edi. «Qayta qurish» madaniy-ma'rifiy muassasalar ishida bir oz jonlanish sodir etgandek bo'ldi: o'tkazilayotgan tadbirlar mazmuni o'zgara boshladidi, ilgari mumkin bo'lмаган mavzular xususida fikr yuritish imkonini tug'ildi, kishilarda ijtimoiy faollik jonlana boshladidi.

Ammo, 1985—1990 yillarda davlat rasmiy siyosatining o'zgarmay qolishi, qayta qurish tufayli paydo bo'lgan «erkinlik» klublar, kutubxonalar ishini etarli darajada jonlantirish uchun kamlik qildi, ular mazmunidagi «siyosiyashuv» yana avj oldi. Madaniy-ma'rifiy muassasalar xukmron siyosiy kuchning ijtimoiy buyurtmasini yana bajarishda davom etdi. Bu esa aholining klublar ishidan bezishiga olib keldi. Yuqori tashkilotlar turli sun'iy yo'llar bilan ular rolini oshirishga, ish faoliyati mazmunini boyitishga harakat qildilar. Lekin uyushtirilgan suhabatlar, ma'ruzalar eski qolipda, kommunistik aqidalar asosida tuzilganligi sababli ular zerikarli bo'ldi va madaniyat muassasalari faoliyati sifatiga salbiy ta'sir qildi. Natijada klublar, hashamatli madaniyat saroylari yana «egasiz» bo'lib qoldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyat hayotidagi tub burilishlar davrida ijtimoiy - siyosiy vaziyatning o'zi buyuk yo'lboshchilarni maydonga chiqaradi. Hindiston tarixida Maxatma Gandhi, Amerika Qo'shma Shtatlari tarixida Jorj Washington, Frantsiya tarixida Sharl de-Goll, Turkiya tarixida Mustafo Kamol Otaturk

¹⁷ Народное хозяйство УзССР в 1990 г. Стат. ежегодник — Т., 1991. С. 123—125.

¹⁸ Социальное развитие СССР в 1989 г. Стат. сборник. — М., 1991. С. 11.

ana shunday tarixiy missiyani o'z zimmasiga olib, ona xalqining milliy-ozodlik kurashiga boshchilik qilganini yaxshi bilamiz.

Bizning yurtimiz tarixida ham ana shunday ulug' yo'l boshchilar tarixiy vaziyat taqozosi bilan maydonga chiqib, xalqimizni yovuz bosqinchilar zulmidan ozod etgan, uning sha'ni va g'ururi, insoniy huquqlarini qayta tiklagan. Bu haqda gapirganda, Sohibqiron Amir Temur bobomiz o'n to'rtinchi asrda Turkiston zaminini mo'g'ullar zulmidan ozod etib, ana shunday buyuk missiyani ado etgnini hamisha g'urur-iftixor bilan esga olamiz. XX asrning 90-yillariga kelib Prezidentimiz Islom Karimov ana shunday o'ta og'ir va mas'uliyatli vazifan zimmasiga oldi. Buni „O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobidagi har bir nutq va ma'ruza, tarixiy hujjat tasdiqlaydi.¹⁹

Islom Karimovga qadar respublikamizni boshqargan rahbarlar faoliyatida o'z xalqining emas, balki faqat mustabid Markazning irodasi, uning manfaatlari bosh mezon bo'lib kelgan edi. Shuning uchun ham ular o'zicha mustaqil hech qanday ish qilolmas, boshqalardan ham ishni talab qilishga ularda qat'iyat etishmas edi. Buni kitobdan o'rinn olgan quyidagi fakt va dalillar isbotlaydi „KPSS Markaziy Komitetining mensimasligi va buyruqbozligi shu darajaga borib etdiki, Markaziy Komitet kotibi yoki viloyat komitetining birinchi kotibi haqida gapirmay qo'ya qolaylik, hatto, obkom kotibini tavsija qilish uchun kelishib olishga yaqin-yaqingacha majbur bo'lib keldik. Kim bilan kelishardik deng? Qandaydir sektor mudiri yoki yo'riqchi bilan, uning xonasi oldida qabul qilishini ko'p navbatda turardik. Barcha darajadagi partiya xodimlarining taqdiri shu kishilar KPSS Markaziy Komiteti apparatining oddiy amaldorlariga bog'liq bo'lib qolgandi.

Mogilnichenko, Bessarabov hamda ularning eng faoli Ponamarevni bir eslang. Ularning bu erga kelishi qanday ta'riflangan edi? Bu butun bir voqeа bo'lgan edi Lekin ular o'zlaridan yaxshi xotira qoldirishmadi. Ular birinchi kotib xonasi eshigini chap oyog'i bilan ochib kirishardi. O'shanda plenumlarda qilingan barcha ma'ruzalarini, men shuni ochiq aytishim kerakki, avvaliga Ponamarev, Anishchev,

¹⁹ Ислом Каримов. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. Т.: „Ўзбекистон» НМИУ, 2011 йил, 33-бет.

Ogarok va ularning to'dasi tahrir qilardi, so'ng Usmonxo'jaev minbarga chiqib, ana shu tayyor narsalarni o'qishga tushardi. U ko'pincha ma'ruzada gap nima haqda borayotganini bilmagan holda o'qirdi.

Ana shu kishilarning xohish - irodasi bilan qanchadan-qancha odamlarning, shu jumladan, kommunistlarning, qanchadan-qancha rahbarlar va ularning oilalari taqdiri buzildi. O'zbekistonni hech qachon bilmagan, uning tili, madaniyati, butungi kuni va o'tmishini bilmagan, umrida O'zbekistonni ko'rmagan bu odamlar uning faqat qullarcha ta'zim qilishini xohlashardi. Shunday kishilar siyosat yurgizishardi. Yuqorida o'tirganlarning hammasi ularning amaldorlari tayyorlagan qarorlargagina imzo chekishardi".

Boshqa bir o'rinda bunday holatning sabablari shunday bayon qilinadi: „Bo'sh-bayov, siyosiy irodadan mahrum, o'z xalqining or-nomusi va qadr-qimmatini himoya qilishga qodir bo'limgan kishilarning O'zbekiston kompartiyasi va respublika rahbariyatiga kelib qolishi avvalo shunga yordam berdi. Ularning aksariyati o'zlarining omon qolishlarini o'ylab, huquq muhofazasi organlari, jumladan, Gdlyan va Ivanov guruhi yo'l qo'ygan qonunsizlik va qonun buzilishlarini payqamaslikka obdan urindilar"

Ana shunday rahbarlarning bo'sh-bayovligidan foydalanib, sobiq Markaz, O'zbekistonning o'zida ko'plab malakali va salohiyatli kadrlar bo'lishiga qaramasdan, SSSRning turli mintaqalaridan yurtimizga ishni bilmaydigan, faqat bu erdag'i imkoniyatlardan foydalanib, davru davron surishni o'ylaydigan odamlarni yubora boshladi. Ular xalqimiz o'rtasida „desantchi"lar deb nom oldi. „Boshqa mintaqalardan yuborilgan kadrlarning ba'zilari respublika ehtiyojlari va kulfatlariga hamdard bo'lish u yoqtsa tursin, balki partiya, sovet va huquqni muhofaza etish organlari va boshqa organlarda o'zlarining rahbar lavozimlariga tayinlanishlarini o'zboshimchalik qilish uchun berilgan yorliq, deb bildilar.

Respublika rahbari sifatida ishtirok etgan birinchi majlisdayoq Islom Karimov o'n yillar davomida hal qilinmayotgan va ko'pchilik bundan buyon ham shunday davom etaveradi, degan kayfiyat bilan umumiy bir beparvolik bilan qo'llab-quvvatlab kelayotgan masalalarga oydinlik kiritadi. Boshqacha aytganda. O'zining rahbarlik pozitsiyasini ochiq bayon etadi. Bu. albatta, zalda o'tirgan, eskicha ishlashga ko'nikib

qolgan aksariyat katta-kichik rahbarlar uchun go'yo bulutsiz osmonda chaqmoq chaqnagandek ta'sir qiladi. Ayniqsa, sobiq Markazdan, SSSRning boshqa hududlaridan O'zbekistonga yuborilgan, o'zlaricha hech kim bizning mushugimizni „pisht" deya olmaydi, degan kayfiyatda yurgan kimsalar birdaniga hushyor tortadi. Chunki shu paytgacha hech kim ulardan ishni qat'iy turib talab qilmagan va buni xayoliga ham keltira olmas edi.

Tasavvur qiling, o'sha paytda mahalliy yoshlar va mesxeti turklari o'rtasida sobiq Markazdagi yovuz kuchlar tomonidan qora niyatda ataylab tashkil etilgan janjal-to'polonlar tufayli butun Farg'ona vodiysi bamisoli o't-olov ichida qolib ketgan edi. Ishsizlik, qashshoqlik, uy-joy va tomorqa erlarining etishmasligi, buning ustiga, bunday janjallarning o'ylab topilganidan xalqning sabr kosasi to'lib ketgan edi. Shuning uchun ham Islom Karimov o'z rahbarligining birinchi ish kunidayoq Farg'ona vodiysi viloyatlaridagi ahvolni muhokama qilish masalasini hukumat oldiga qat'iy vazifa qilib qo'yadi. Har qaysi viloyatdagi mas'ul shaxslardan aholining ijtimoiy yashash sharoitlari haqida hisobot berishni talab qiladi. Afsuski, bu mas'ul shaxslarning birortasi ham shunday mas'uliyatli majlisga puxta tayyorgarlik bilan kelmaydi. Chunki ular sobiq Markazdan qo'yilgan shaxslar — Farg'ona oblast ijroiya komiteti raisining o'rribosari Yu.Kalimullin, Namangan oblast ijroiya komitetining birinchi o'rribosari A.Boguslovskiy, Andijon oblast ijroiya komiteti raisining birinchi o'rribosari V.Babenko edi. Ular xuddi I.Usmonxo'jaev va R.Nishonov kabi avvalgi rahbarlar davridagidek, hech kim bizdan ish talab qilolmaydi, degan o'y-xayol bilan majlisda nomiga qatnashish uchun kelishgan edi, xolos. Lekin o'zining qanday buyuk missiya bilan respublika rahbari bo'lib ish boshlayotganini, bu boradagi ulkan mas'uliyat va javobgarlikni yurak-yuragidan his qilgan Islom Karimov nafaqat ishga, ayni paytda ming-minglab odamlar taqdiriga bunday mensimasdan munosabatda bo'lishga mutlaqo toqat qilolmaydi. Shuning uchun ham butun majlis ishtirokchilarini ogohlantiradi: **“Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o'zi yo'l qo'ymaydi”**.

O'zbekistonning butun tarixi xalqning mustaqillik uchun doimiy va tinimsiz intilishi bu narsadan guvohlik beradi.

1991 yil 1 sentyabrda O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishuvi bu narsaga chek qo'ydi. Prezidentimiz Islom Karimovnmng say harakatlari bilan O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan ekan bugun jahon mamlakatlari qatorida o'z mavqeiga ega bo'ldi.

2.3. Fan yuzasidan keyslar to'plami amaliy topshiriqlar ishlanmalar.

Bugun ta'limda “Case-stady” metodi etakchi o'rinni egallaydi. Case metodi – real iqtisodiy ijtimoiy va biznes – vaziyatlarining tavsiflaridan foydalangan holda talabalarda aniq ko'nikmalarni shakllantirish texnikasidir. Talabalar vaziyatni tahlil qilishlari muammo mohiyatini tushunishlari mumkin bo'lgan echimlarni taklif etishlari va ularning eng yaxshilarini tanlashlari kerak. Keyslar real vaziyatlarga yaqin bo'lgan materiallarga asoslanadi.

- Keys-stadining asosiy maqsadi turli vaziyatli, shu jumladan, pedagogik vaziyatli masalalarni hal qilish mobaynida talabalarning kontseptual sxema va modellaridan amaliy foydalanish malakalarini, shuningdek muammolvrni guruhiy tahlil qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini ishlab chiqish orqali bilimlarni mustahkamlash.

- Masalan:

Қатағонлик сиёсатининг моҳияти	
→	Хусусий мулк, асрий анъаналар йўқ қилинди
→	Давлат ҳукмронлиги ўрнатилди, мамлакатда партия якка ҳокимлигини ўрнатилди
→	Совет тузумига қарши бўлган халқнинг илғор қатламларини давлат бошқарувига яқинлаштирумаслик сиёсати олиб борилди
→	Большевикларга халақит бермаслиги учун зиёлилар таг-томири билан йўқотилди
→	Ҳар қандай йўл билан совет давлатининг куч қудратини сақлаб туриш асосий мақсад эди
→	Илғор ғоялар йўқотилди
→	Кўзга кўринган олимлар, шоир ва давлат арбоблари шафқатсиз йўқ қилинган
→	Миллий ғурур ва ўзликни англаш ғоялари илдизи билан қуритига интилган
→	Халқларнинг тили, дили ва асрий анъаналарига тажовуз қилинган
→	Диний қадриятлар топталганди
→	Пировард натижада ягона совет халқини ташкил этишга ҳаракат бўлди
→	Халқларга нисбатан геноцид сиёсати қўлланилган
→	Фикрлаш, сўз ва эътиқод эркинлиги чекланган
→	Совет халқини бошқа халқлардан ажратиб исканжада ушланган, зўрлик орқали камчиликлар яширилган

Қатағонлик - миодий зулм демакдир!

Фикрингизни баён этинг

Ф

Фикрингиз баёнига бирор сабаб кўрсатинг

С

Кўрсатилган сабабни тушунтирувчи (исботловчи) мисол келтиринг

М

Фикрингизни умумлаштиринг

У

«ФСМУ» технологияси

- Keys-stadi o'quv mashg'ulotlarida keyinchalik ko'rib chiqiladigan daliliy materiallar asosida maxsus yaratiladigan o'quv vaziyatlaridir. Bunday mashg'ulotlarda talabalar turli vaziyatlarni ko'rib chiqadi, vaziyatlarni tahlil qiladi, mustaqil fikrlashni, o'z-o'zlarini tanqid qilishni va baholashni, ijodiy fikr yuritishni o'rganadilar.

- Keys-stadi metodi ijtimoiy – iqtisodiy fanlarda boshqa fanlarga nisbatan ko'proq qo'llaniladi.

Asosiy atama va tushunchalarga izox bering (Aqliy hujum metodi).

1.	Paxta yakkahokimligi		Kommunistik mafkura
2.	Kadrlar siyosati	0.	«Qayta qurish» siyosati
3.	Mustabidlik tizimi	1.	«O'zbeklar ishi»
4.	Xomashyo bazasi	2.	«Paxta ishi»
5.	Ekologik vaziyat	3.	Kadrlar desanti

6.	Orol fojeasi	4.	Ma'muriy-buyruqbozlik tuzumi
7.	Qoldiq printsipi asosida moliyalashtirish	5.	Milliy o'zlikni anglash
8.	Irrigatsiya-melioratsiya	6.	Mustaqillik g'oyasi

Mashg'ulotlar jarayonida "*Aqliy hujum*" uslubidan foydalanishda bir necha qoidalarga amal qilish talab etiladi. Ushbu qoidalalar quyidagilardir:

1. Mashg'ulot ishtirokchilarini muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ular tomonidan kutilmagan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish.
2. Har bir talaba tomonidan bildirilayotgan fikr yoki g'oyalar miqdori rag'batlantirilib boriladi. Bu esa bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullarini tanlab olishga imkon beradi. Bundan tashqari fikrlarning rag'batlantirilishi navbatdagi yangi fikr yoki g'oyalarning tug'ilishiga olib keladi.
3. Har bir talaba o'zining shaxsiy fikr yoki g'oyalariga asoslanishi hamda ularni o'zgartirishi mumkin.

“Veer” (elpig’ich) texnologiyasi (muallifi R.J. Ishmuhammedov).

Bu texnologiya murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtai nazardan muhokama etiladi. Bu interfaol texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

Xususan, tarix faniga “Veer” (elpig’ich) texnologiyasini amalga oshirishda avval bi-ron mavzu tanlanadi. Misol uchun: “Sovet davlatida ma'muriy buyruqbozlik tuzuming kuchayishi va inqirozi davrida O'zbekiston (1946-1991 yillar)”. So'ng, talabalar bir nechta guruhlarga bo'linib, har bir guruhg'a muayyan nom beriladi, mavzu e'lon qilinib oldindan tayyorlab qo'yilgan plakatlar tarqatiladi. Talabalar berilgan mavzuning ijobiy va salbiy tomonlarini yozib

chiqadilar. Vazifa berilgach, plakat tagida qaror qismi yoziladi. Ushbu qaror qismi plakat orqasiga qaytarib qo'yiladi. Guruhdan bir talaba so'zga chiqib, yozilgan barcha fikrlarni himoya qiladi. Keyin navbatdagi guruh vakillaridan qanday qarorga kelingani so'raladi.

Mazkur texnologiyani bajarish uchun 25 daqiqa ajratiladi. Ushbu texnologiyadan foydalanish amaliy mashg'ulot darslarida qo'llanishi ijobiy samara beradi.

"Tarmoqlar" uslubi. (Klaster)

"Tarmoqlar" uslubi - talabani mantiqiy fikrlash, umumiylash, doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan. fikrlarning tarmoqlanishi bu pedagogik strategiya bo'lib, u talabalarni biron - bir mavzuni chuqur o'rghanishlariga yordam berib, talabalarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma - ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi.

Bu uslub biron - bir mavzuni chuqur o'rghanishdan avval talabalarni fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda talabalarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklda ifodalashga undaydi.

Bu esa talabalarga o'z bilimlari, tushunishlari va tasavvurlari darajasini aniqlashga yordam beradi. Fikrlarni tarmoqlash quyidagicha tashkil etiladi:

- 1.Xayolga kelgan har qanday fikr ketma - ket yoziladi.
- 2.Fikrlar tugamaguncha yozishda davom etaverish kerak, mabodo fikrlar tugab qolsa, u holda yangi fikr kelguncha biron rasm chizib turiladi.
- 3.Iloji boricha fikrlarning ketma - ketligi va o'zaro bog'likligini ko'paytirishga intilish lozim bo'ladi.

Ushbu uslub yakka, kichik guruh, jamoa bilan ishlashda qo'llanilishi mumkin. Guruh holatida qo'llanilishi guruhlardan fikrni to'plash va ularni bir tizimdag'i qurilmaga keltirishi mumkin.

"Bumerang" texnologiyasi.


Ushbu texnologiya talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda mashg'ulot davomida barcha talabalarni baholay olishga qaratilgan.

Ta'lif bilan bir qatorda mazkur uslub tarbiyaviy xususiyatdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- *Jamoa bilan ishlash mahorati;*
- *xushfe'lllik;*
- *ko'nikuvchanlik;*
- *faollik;*
- *ishga ijodiy yondashish, o'z faoliyatining samarali bo'lishiga qiziqish;*
- *o'zini xolis baholash.*



Yuqorida qayd etilgan usullardan foydalanish talabalar o'rtasida ijodkorlik va tashabbuskorlikni kuchaytirib, ilm - fanda texnika va iqtisodni boshqarishda yangidan - yangi yo'llarni izlab topa olish faolligini oshiradi.



NAZORAT VA MUHOKAMA UChUN SAVOLLAR

1. Sanoatning bir tomonlama rivojlanishi sabablari nimada edi?
2. Respublika sanoat korxonalarida milliy kadrlar tanqisligining sababi nimada edi?
3. Ijtimoiy sohaning qoldiq printsipli asosida mablag' bilan ta'minlanishining salbiy oqibatlarini gapirib bering.
4. Ma'naviy madaniyatning rivojlanishidagi ziddiyatlar nimalardan iborat edi?
5. Qo'riq erlarni va cho'llarni o'zlashtirishdan Markaz qanday maqsadni qo'zlagan, unda yo'l qo'yilgan xatolar qanday oqibatlarga olib keldi?
6. Sobiq sovet mafkurasi o'zbek xalqining turmushiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
7. Milliy til va madaniyat kansitilganligini qanday izohlaysiz?
8. Qayta qurishning mohiyati nimadan iborat edi?
9. Milliy o'zlikni anglash jarayonining mazmuni va Mustaqillik g'oyasi nimadan iborat?
10. Ma'muriy-buyruqbozlik tuzumi sharoitida davlatni boshqarish qanday amalga oshirilgan?
11. Paxta ekin maydonlarining kengaytirilishi qanday iqtisodiy muammolarni keltirib chiqargan?
12. Kadrlar siyosatidagi ziddiyatlar nimalardan iborat?
13. Kommunistik g'oyaning nomilliy xarakteri nimalarda yaqqol ko'rindi?
14. Ko'p partiyaviylik va uning mohiyati nimada?
15. O'zbek milliy davlatchiligining qaror topish jarayoni qanday kechdi?
16. 1985 yil aprelda e'lon qilingan yo'lning, ya'ni "qayta qurish" siyosatining qanday ijobiy va salbiy tomonlari bor edi?
17. 80-yillar qatag'oni mohiyatini ochib ko'rsating.
18. "Paxta ishi"ga o'z munosabatingizni bildiring.
19. SSSRning tanazzulga uchrashi sabablarini ochib bering.

20. Farg'ona voqealarining asl sabablari to'g'risida o'z fikringizni bildirning.
21. Nima sababdan ittifoqdosh respublikalar SSSR tarkibidan chiqa boshladilar?
22. Qanday kuchlar, nima maqsadda Moskvada fitna uyushtirdilar?
23. O'zbekiston suvereniteti to'g'risidagi Deklaratsiya matni bilan tanishib chiqing va uning asosiy qoidalarini ta'riflab bering.
24. Favqulodda holat davlat qo'mitasining maqsadini ochib bering.
25. O'zbekiston Prezidenti lavozimi qachon ta'sis etildi, uning ahamiyatini bilasizmi?
26. I.A. Karimov qachon va qaysi organ tomonidan O'zbekiston SSR Prezidenti etib saylandi?
27. Mustaqillik Deklaratsiyasi qachon qabul qilindi? Uni daftaringizga yozib oling.
28. Oliy Kengashning O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risidagi qarorining mazmunini bilasizmi?
29. Gldyan, Ivanov boshchiligidagi „desantchilar“ tomonidan amalga oshirilgan qonxo'rliklarni bartaraf etishda O'zbekiston rahbarining jasorati.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

darslik eki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;

- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar kismini o'zlashtirish;*
- mustaqil ishlar, keys-stadilar bilan ishslash;*

maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishslash;

- fanga oid ma'lumotlarni o'rganish, ularni tahlil qilish;*

talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'lik bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularni chuqur o'rganish;

faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;

- masofaviy (*distantion*) ta'lif.

“O'zbekiston tarixi” fanidan talabalarning mustaqil ishlarini referat, seminar, ma'ruza tayyorlash, Prezident asarlarini konspektlashtirish va boshqa shakllarda tashkil etilishi tavsiya etiladi. Mustaqil ish mavzularini belgilashda ma'ruza va seminar mashg'ulotlari mavzularini to'ldirishga harakat qilinishi lozim.

MUSTAQIL TA'LIM YuZASIDAN KO'RSATMALAR

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
Guliston davlat universiteti Ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti Tarix yo'naliishi
O'quv yili: 2014-2015 Kurs: 1 Semestr: 1-2**

Fan: O'zbekiston tarixi

Bilet № 1

1. O'zbekiston tarixining fan sifatidagi o'rni. Uning predmeti va o'rganish obekti. (O'zbek xalqi davlatchiligi, etnik shakllanishi, tsiviliazatsiya, tarix mustaqillik).
2. I.A.Karimovning “Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch” asarida fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oyalarning asoslanishi.(erkin fikr, milliy g'oya, yadro paligonlari, g'oyaviy bo'shliq hasadguylik, samimiylilik, insonparvarlik)
3. Umumxalq saylovida I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishi. (1991 yil 29 dekabr, umumxalq saylovi, I.A.Karimov, Referendum.)
4. Sovetlar hokimiyatining iqtisodiy tadbirlari va uning oqibatlari. (Harbiy kommunizm siyosati, er-suv islohotlari, Qo'shchi uyushmasi, Bonnlar)
5. I.A.Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'k» asarida hozirgi kunda O'zbekiston tarixining echilishi zarur bo'lgan muammolarining ko'tarilishi. (O'zlikni anglash, tarixiy xotira, tarixiy saboklar, tarix falsafasi, Vatan tarixi)

Kafedra mudiri:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Guliston davlat universiteti Ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti Tarix yo'nalishi
O'quv yili: 2014-2015 Kurs: 1 Semestr: 1-2
Fan: O'zbekiston tarixi
Bilet № 2

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» asarida milliy armiyani shakllantirish masalasi.(vatanga sadoqat, Amir Temur haqida rivoyat, axloqiy sog'lomlik, chin o'zbek ishi, afg'on urushi)
2. Fashizmni tor-mor etishda O'zbekistonning munosib o'rni. (Front bilan aloqani mustahkamlanishi, baynalminallik, O'zbekiston jangchilarining jasorati va qahramonlik)
3. Chorizmning Turkistonda iqtisodiy hukmronlikni o'rnatish tadbirlari. («Turkiston o'lkasining boshqarish to'g'risida»gi Nizom, iqtisodiy hukmronlik, paxta xom ashyosi, temir yo'llar qurilishi)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» asarida huquqiy mustaqillikni ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlar va ularning ahamiyati.(konseptual fikr, sud-huquq tizimi, huquq tizimining ikki guruhi-ommaviy va xususiy huquq)
5. Buxoro va Xivada Sovetlar istibdodiga qarshi qurolli harakat. (Yosh buxoroliklar, yosh xivaliklar, Junaidxon, Ibrohimbek, Mulla Abdulaziz).

Kafedra mudiri:

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Guliston davlat universiteti Ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti Tarix yo'naliishi
O'quv yili: 2014-2015 Kurs: 1 Semestr: 1-2
Fan: O'zbekiston tarixi
Bilet № 3**

1. O'zbekiston SSRning tashkil topishi. (Milliy hududiy chegaralanish, T.Risqulov, 1925 yil 13 fevral Buxoroda O'zSSR Sovetlarining 1-sezdi)
2. Qoraqalpog'iston muxtor jumhuriyatining tashkil topishi. (Amudaryo bo'limidagi qatag'onlar, Xonmaxsum, Bolabiy faoliyati, Qurbon Mamed (Junaidxon), harbiy-siyosiy ahvol, savdo bitimlari)
3. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylikning qaror topishi. (Xalq demokratik partiyasi, Adolat-sotsial demokratik partiyasi, Milliy tiklanish demokratik partiyasi, Fidokorlar milliy demokratik partiyasi, O'zbekiston liberal demokratik partiyasi.)
4. O'zbekistonda sanoatlashtirish siyosati. (Industrlashtirish, yangi sanoat korxonalarining qurilishi, malakali ishchilar, muxandislar, rus aholining ko'chirilishi)
5. O'zbekiston Respublikasining bozor munosabatlarini shakllantirish «O'zbek modeli». (Bozor munosabatlarining 5 tamoyili, «O'zbek modeli», I.A.Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asari)

Kafedra mudiri:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

**Guliston davlat universiteti Ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti Tarix yo'nalishi
O'quv yili: 2014-2015 Kurs: 1 Semestr: 1-2
Fan: O'zbekiston tarixi**

Bilet № 4

1. XX asrning 50-60 yillarida suv inshootlarining qurilishi va bunda o'zbek xalqining mehnat jasorati (Boyovut, Eski Angor kanali, Kosonsoy suv ombori, Amu-Buxoro, Janubiy Mirzacho'l kanali, Jizzax suv ombori)
2. Jahon sivilizasiyasi tarixida Samarqandning tutgan o'rni. (Afrosiyob, Buyuk Ipak yo'li, Amir Temur, YuNESKO yubileyi, Sharq taronalari)
3. Ikkinci jahon urushidan keyingi yillarda O'zbekistonning iqtisodiy hayoti. (Xalq xo'jaligini tiklash, 1945-50 yillar iqtisodiyotning bir tomonlama rivojlanishi)
4. I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch" asarida fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oyalarning asoslanishi.(erkin fikr, milliy g'oya, yadro paligonlari, g'oyaviy bo'shliq hasadguylik, samimiylilik, insonparvarlik)
5. Ikkinci jahon urushidan keyingi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotini boshqarish sohasidagi xatolar. (O'zbekiston sanoati, hududiy joylashtirish, ekologik muammolar)

Kafedra mudiri:

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Guliston davlat universiteti Ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti Tarix yo'nalishi
O'quv yili: 2014-2015 Kurs: 1 Semestr: 1-2
Fan: O'zbekiston tarixi**

Bilet № 5

1. XX asrning 50-70 yillarida o'tkazilgan iqtisodiy islohotlar, ularning samarasizligi. (Agrar tanglik, «komunistik jadallashtirish»)
2. O'zbekistonning zamonaviy avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatlar qatoriga qo'shilishi. (DEU Korporeyshn, «Selxozmash», SamAvto)
3. Buxoro amirligi va Xiva xonligining Rossiya vassallariga aylantirilishi. (1868 yil Rossiya–Buxoro va 1873 yilgi Rossiya-Xiva shartnomalari, Gandimyon shartnomasi.)
4. XX asrning 70-80 yillarida O'zbekiston iqtisodiyotidagi tangliklar va nuqsonlar. (Paxta yakkahokimligi, ekologik holat)
5. I.A.Karimovning “Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch” asarida ma'naviyatni anglash tushunchasi. (ma'naviy tahdid, ma'naviyat tushunchasi, ezgu ishlar, nohaqlik, hayotiy qarashlar)

Kafedra mudiri:

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Guliston davlat universiteti Ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti Tarix yo'nalishi
O'quv yili: 2014-2015 Kurs: 1 Semestr: 1-2
Fan: O'zbekiston tarixi**

Bilet № 6

1. Paxta yakka hokimligining oqibatlari. Ekologik holatning buzilishi. (Paxta yakka hokimligi, Orol fojeasi, ko'rik va bo'z erlar, ekologik muammolar)
2. O'zbekistonda milliy valyuta - so'mning muomilaga kiritilishi. (Bozor infrastrukturasi, xususiy lashtirish, makroiqtisodiyot, 1994 yil iyul - so'mning muomilaga kiritilishi)
3. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining maqsad va vazifalari (2001 yil 25-aprel, nizom, dastur, yoshlar, etakchi)
4. XX asr 50-80 yillarda O'zbekistonda ijtimoiy hayot. (Aholining o'sishi, milliy tarkibdagi o'zgarishlar, aholining ish bilan ta'minlanishi)
5. I.A.Karimovning “Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch” asarida ma'naviyatni anglash tushunchasi. (ma'naviy tahdid, ma'naviyat tushunchasi, ezgu ishlar, nohaqlik, hayotiy qarashlar)


Kafedra mudiri:

FAN MAVZULARI YuZASIDAN TAQDIMOTLAR





9-илюса



Мустабид тузумнинг машъум “Пахта иши” ва “Ўзбек иши” деб номланган
қатағонлик сиёсати

Mustabid tuzumning mash'um "Paxta ishi" va "O'zbek ishi" deb nomlangan
qatag'onlik siyosati



Sobiq ittifoq davrida paxtalarni defolatsiya qilish holati

XULOSA VA TAVSIYALAR

1946-1991 yillar Sovet davlatida ma'muriy buyruqbozlik tuzumining kuchayishi va inqirozi davrida, xalqning juda katta zo'r berishi va mehnati bilan ma'lum bir yutuqlarga erishildi. Afsuski, buning uchun u ko'p mahrumliklarga duchor etildi va hatto qurbanlar berishga majbur bo'ldi.

30-yillarning oxirida va 50-yillar boshida ro'y bergan ommaviy qatag'onlar davrida, 80-yillarning birinchi yarmida Moskvada to'qib chiqarilgan «paxta ishi» yoki «o'zbeklar ishi» deb atalgan bo'hronlarda, fojeiy tarzda namoyon bo'ldi. Mustabid tuzum boshqacha fikrlashning eng arzimas ko'rinishiga, uning imperiyacha siyosatiga bildirilgan shunchaki norozilikka, respublikaning mustaqilligi va manfaatlarini oshkora himoya qilish kabi ko'rinishlarga shafqatsizlik bilan zarba berdi.

Respublikaning Markazga mustahkam bog'likligi, Markaz esa birinchi navbatda o'z manfaatlarini ko'zlashi natijasida O'zbekistonning ijtimoiy-iqgisodiy va madaniy rivojlanishi nihoyatda ziddiyatli tarzda kechdi:

—Kommunistik partiya O'zbekiston va boshqa milliy respublikalar Sovet Ittifoqiga qaramligining yangicha davlat shaklini vujudga keltirar ekan, u O'rta Osiyo klassik mustamlakachiligi davrida vujudga kelgan ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va iqgisodiy aloqalariga asoslandi. Binobarin, barcha ittifoqdosh respublikalarning iqgisodiyotini baravarlashtirish g'oyasi o'n yilliklar mobaynida faqat nomigagina amalga oshirildi, ularning tengsizligi esa baribir amalda sakdanib qoldi.

—O'zbekistonga Konstitutsiya bo'yicha berilgan suveren huquklar ham faqat ko'r-ko'rona edi, aslida esa respublika metropoliya mustamlakasiga aylantirilib, bundan kelib chiqadigan barcha oqibatlarga duchor qilindi.

—Mustabid tuzum «xalq hokimiyyati» sifatida «mehnatkashlar ommasi»ni davlat qurilishiga keng jalb qilar ekan, ayni vaqtda o'zining 70 yildan ko'proq hukmronlik davrida aholining «ekspluatatsiya qiluvchi», «mehnatkash bo'limgan» sinflarini va ijtimoiy guruxlarini eng oddiy fuqarolik huquklaridan ham mahrum etdi.

—O'zbekistonni dabdabali ravishda ishchilar va dehqonlar respublikasi, keyin esa «mehnatkashlar» va nihoyat «xalq ommasi» respublikasi deb e'lon qilgan «xalqparvar» tuzum uni mamlakatda hukmron bo'lgan kommunistik partianing

qat’iy boshqaruviga, «partiya-sovet nomenklaturasi» qo’liga topshirib qo’ydi, barcha jamoat tashkilotlari esa partianing oddiy «dastyoriga», uning harakatlantiruvchi vositasiga aylantirildi.

—Markaz respublikada sanoatni jadal sur’atlar bilan rivojlantirar ekan, ayni vaktda unga bir tomonlama, mustamlaka xususiyatini bag’ishladi.

—Sovet davlati qishloq xo’jaligining modtsiy-texnika bazasini mustahkamlab, unga ma’lum darajada mablag’ ajratar ekan, bu erda metropoliya manfaatlari yo’lida respublika iqtisodiyoti agrar sektorining boshqa an’anaviy tarmoklariga zarar etkazgan holda paxtachilikni yuqori sur’atlar bilan rivojlantirdi, bu esa pirovard natijada og’ir ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik oqibatlarga ega bo’lgan paxta yakkahokimligi qaror topishiga olib keldi. Moskvaning imperiyacha iqtisodiy siyosati natijasida O’zbekiston sovet hokimiyati yillarida metropolianing xom ashyo bazasiga aylantirildi. Ittifoqning sanoat markazlariga va oziq-ovqat mintaqalariga to’la -to’kis bog’liq qilib qo’yildi.

Mustabid tuzum O’zbekistonda umumiyligi, o’rta maxsus va oliy ta’limni, fan va madaniyatni keng rivojlantira borib, ularni ko’p darajada mafkuralashtirish, siyosiy va baynalmilal tus berishga va hatto ruslashtirishga, xalqni ko’p asrlik ma’naviy merosidan, milliy an’analari va urf-odatlaridan bebahra qilishga intildi.

Bularning barchasi oxir-oqibatda mustabid Sovet davlatini tag-tomiri bilan emiradigan ichki ziddiyatlarga aylandi- ki, bu illatlar tuzum inqirozini muqarrar qilib qo’ydi.

Mustamlakachilikdan so’ng yoxud milliy tanazzul iztiroblaridan keyin shunday hodisa yuz berdiki, odamlar o’zlarini anglay boshladi. Fikriy mudroqlikka chek qo’yildi. Umumbashariy taraqqiyotga turtki bo’ladigan jiddiy o’zgarishlarga, umuminsoniy qadriyatlarni yangidan-yangi ne’matlar bilan boyitadigan tub burilishlar vujudga keldi.

O’zbek xalqining tarixiy va eng buyuk yutug’i bo’lgan mustaqillikka erishdik.

Mustaqillik millat tushunchalari va bevosita uning tashabbuskori Islom Karimov nomi bilan bog’liq bo’lgan uchinchi Renesans davrining boshlanishidir.

Fan bo’yicha talabaning malakasiga qo’yiladigan talablar

O'zbekiston tarixi o'kuv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladipsh masalalar doirasida bakalavr:

- fanning predmeti, nazariy-metodologik asoslari, manbalari va ahamiyashii O'zbekiston tarixi jahon tarixining ajralmas qismi ekanligini, o'zbek davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarini bilishi kerak;
- O'zbekiston tarixinining asosiy davrlari va taraqqiyotining tadrijiy bosqichlari to'g'risida, ularning uzviy bog'liqligi va davomiyligi, tarixiy voqealar vorisiyligi haqida tasavvurlarga ega bo'lishi lozim;
- mustamlakachilik va qaramlik davrida O'zbekistonning turli sohalari rivojlanishiga qarshi siyosat va ularning ayanchli oqibatlari, turli davrlarda istilochilarga va mustabid tuzumga qarshi ozodlik yo'lidagi kurashlar xamda vatanparvalik jasoratlari haqida bilishi, Vatanimizning rivoji yo'lida fom ishtirok etish kunikmalariga ega bo'lishi kerak;
- ajdodlarimizning jahon tsivilizatsiyasiga qo'shgan xissasi to'grisida chukur bilimga ega bulishi, ularning ibratli hayoti va faoliyati bilan faxrlanishi his-tuyg'usiga ega bulishi zarur;
- O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi, xuquqiy demokraii davlat va fuqarolik jamiyatni asoslarining barpo etilishi, yangilanish va modernizatsiya jarayonlari haqida to'laqonli bilimga ega bo'lishi kerak;
- O'zbekiston tarixida kechgan jarayonlarga nisbatan o'z nuktai nazariga ega bo'lishi xulosa chiqara olishi va o'zining jamiyat tarraqqiyotida tutgan o'rmini anglash ko'nikma va malakasiga ega bo'lishi lozim.

Bitiruv loyiha ishi yakunida quyidagi ilovani tavsiya etaman.

Tarix fanlarini o'qitishda ma'ruzalar muammoviy ma'ruzalar shaklida o'tkazilishi lozim.

- Seminar mashg'ulotlari esa, taqdimot, kichik guruhlarda ishslash hamda o'quv jarayonining boshqa interfaol shakllarida amalga oshirilishi lozimdir.
- O'qitishning eng faol usullaridan foydalanish, xorijiy tajribalarni qo'llash ham lozimdir.

- Talaba faolligini oshirish usullaridan suhbat, muloqot seminar treninglar qo'llanilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2011.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istikdol, iktisod, siyosat, mafkura. T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. -T: O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagox kabi muqaddasdir. -T.: O'zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. -T.: O'zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. -T.:O'zbekiston, 1997.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. -T.:O'zbekiston, 1998.
8. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan kuramiz. - T.: O'zbekiston, 1999.
9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon turmush-pirovard maqsadimiz. -T.:O'zbekiston, 2000.
- 10.Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. -T.:O'zbekiston, 2001.
- 11.Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmok kerak. -T.:O'zbekiston. 2002.
- 12.Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l-demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan xamkorlik yo'li. -T.: O'zbekiston, 2003.
- 13.Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjixatligimiz va qat'iy irodamizga bog'lik. -T.: O'zbekiston, 2004.
- 14.Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari - oliv kadriyat. Tom. - T.: O'zbekiston, 2006.
- 15.Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning xayot darajasini oshirish - barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. Tom. - T.: O'zbekiston, 2007.
- 16.Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiy timizni barqaror rivojlantirish yo'lida. Tom - T.: O'zbekiston, 2009.
- 17.Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash - bizning oliy maqsadimiz dir. Tom -T.: O'zbekiston, 2009.

- 18.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008.
- 19.Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: O'zbekiston, 2010.
- 20.Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-T.:O'zbekiston, 2011.

Darslik va o'quv qo'llanmalar:

1. Abdullaev Yu.N. Jahon oliv maktabi: qiyosiy tahlil. O'quv qo'llanma. T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. 174 b.
2. Azizzo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006, 160 b.
3. Azizzo'jaev A. Chin o'zbek ishi. T.: Akdemiya, 2003
4. Bobojonova D. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. O'quv ko'llanma. -T.: Shark, 1999
5. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. -T.: Sharq 2000.
6. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinci kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. -T.: Sharq2000.
7. O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustakil O'zbekistom tarixi. T.: Shark 2000.
8. Murtazaeva R.X. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. Darslik.-T.: 2003.
9. Murtazaeva R.X., Doroshenko T.I i dr. Istoriya Uzbekistana. Elektronmp uchebnik dlya vuzov. - T.: 2010.
- 10.Murtazaeva R.X. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. -T.: Akademiya, 2010.
- 11.Murtazaeva R.X. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va barikenglik. O'quv ko'llanma -T.: Universitet, 2007.
- 12.Sa'dullaev A. va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat tarakkiyoti. O'quv qo'llanma -T.: Akademiya, 2000.
- 13.Shamsutdinov R va b. Vatan tarixi. Uchinchi kitob. T.: Sharq, 2010.-496 b.

- 14.Ishmuhammedov R. va boshq. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. T.: Itsedod, 2008
- 15.Mahkamov S., Odilov A. O’zbekiston tarixi fanidan ma’ruzalar texnologik xaritalari.T.: Fan va texnologiya, 2012
- 16.Ta’lim texnologiyalari. Ilmiy – uslubiy jurnal. №2(52) 2015 yil
- 17.Ta’lim texnologiyalari. Ilmiy – uslubiy jurnal. №3(52) 2015 yil
- 18.“Ma’rifat” jurnali
- 19.“Jamiyat va boshqaruv” jurnali
- 20.“Moziydan sado” jurnali
- 21.“Xalq so’zi” gazetasi www.xs.uz
- 22.“Turkiston” gazetasi www.turkiston.uz

Elektron ta’lim resurslari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.e-tarix.uz
3. www.lex.uz
4. www.gov.uz